54. Madrimov, Bakhram Khudoynazarovich, and Tokhtasin Ibodovich Rajabov. "Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics." Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1.4 (2022): 53-56.
55. Rajabov, To'xtasin Ibodovich, and Bexruz Hamidovich Boltaev. "Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi." "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.
56. Rajabov, To'xtasin. "UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." IJODKOR O'QITUVCHI 2.21 (2022): 21-31.
57. Rajabov, To'xtasin. "UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA OZBEK MUSIQA FOLKLORINI ORGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 Sentyabr." (2022).
58. Ibodovich, Rajabov To'xtasin, and Raximov Abdurasul Ravshan O'g'li. "XALQ MUSIQA IJODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MUSIQA SAN'ATI FIDOYILARINING FAOLIYATI XUSUSIDA." Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali 2.5 (2022): 28-32.
59. Rajabov, To'xtasin Ibodovich, and Bexruz Hamidovich Boltaev. "Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi." "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.
60. Rajabov, Toxtasin Ibodovich. "UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR QO'SHIQLARINI IJRO ETISHHIG O'ZIGA XOS USLUBLARI." Scientific progress 1.5 (2021): 581-585.
61. Ibodovich, Rajabov Tukhtasin. "The Educational Significance of Children's Folk Songs in Music Culture Lessons." European Scholar Journal 2.6 (2021): 139-141.
62. Rajabov, To'xtasin Ibodovich, and Sabina Sayfiddin qizi Safoeva. "5-7-SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA."

BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI
2.10 (2022): 392-400.

63. Rajabov, To‘xtasin. “UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O‘RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.” IJODKOR O‘QITUVCHI 2.21 (2022): 21-31.

64. Rajabov, To‘xtasin Ibodovich, and Sabina Sayfiddin qizi Safoeva. “MUSIQA MADANIYATI TA’LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O‘RNI.” TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2.10 (2022): 423-431.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA MATNLI MASALALARNI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSI

Xolmamatova Madina Chori qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi magistranti

e-mail: madinaxolmamatova94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matnli masalalarni o‘rgatish, uning ahamiyati va pedagogik asoslari umumiy tarzda bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, o‘quvchi, o‘qituvchi, masala, o‘qitish, o‘rgatish, usul, matnli masala, muammo, tafukkur, matematika, mantiqiy fikrlash

Аннотация: В данной статье в общих чертах описано преподавание текстовых задач учащимся начальных классов, его значение и педагогические основы.

Ключевые слова: образование, воспитание, ученик, учитель, проблема, учение, обучение, метод, словесная задача, проблема, мышление, математика, логическое мышление.

Abstract: In this article, the teaching of text problems to primary school students, its importance and pedagogical foundations are described in general.

Key words: education, education, student, teacher, problem, teaching, teaching, method, word problem, problem, thinking, mathematics, logical thinking

Kirish: Hozirgi asrimiz axborot kommunikatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar asridir. Biz bilamizki, har qanday rivojlanish asosida aniq hisob kitoblar yotadi. Bu esa o‘z navbatida matematika fani va uni o‘rganishga, rivojlantirishga, uning yutuqlaridan samarali foydalanishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta‘limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg‘or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining (keyingi o'rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag'lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalari xarid qilindi; to'rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisiligidagi Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar matematika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Ta'limning barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi belgilab olindi. [1]

-Asosiy qism: O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fani vositasida matnli masalalar bilan o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarni matematik qobiliyatlarini matnli masalalarni yechish orqali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Endigina maktab yoshiga yetgan barcha bolalarni o'z bag'riga chorlovchi boshlang'ich maktab esa keng imkoniyatlar va sharoitlar yaratuvchi uzluksiz ta'limning asosini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinfda olingan ta'lim barcha keyingi ta'limning asosi, poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich maktabda bolalar keyingi bosqichga o'tish uchun bilim asoslarini o'zlashtiradilar. Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi daslik bilan ishlashga, sanashga, yozishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.[2; (pp. 27-28,)]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini o'stirishda matnli masalalar asosiy vositalardan biri sanaladi.

Masala nima? Har qanday matnli malasa - bu hodisani (*vaziyat, jayonni*) tavsiflashdir. Shu nuqtai nazardan, matnli masala hodisaning og'zaki modelidir va har qanday modelda bo'lgani kabi, matnli masala ham butun hodisani bir butun safatida emas, balki faqat ba'zi jixatlarini, asosan uning miqdoriy xususiyatlarini tavsiflaydi.

Har qanday matnli masala ikki qismdan iborat – shartlar va talablar.

Shartlarda ob'ektlar va ob'ektning ba'zi raqamli ma'lumotlari, ular orasidagi ma'lum va noma'lum qiymatlar to'g'risida ma'lumot beradi. Masalaga qo'yiladigan talablar – bu topish kerak bo'lgan ma'lumotdir. Bu buyruq yoki so'roq shaklidagi jumlar bilan ifodalanadi. [3; 5-bet]

Matematika fanini o'rganishda o'quvchilar turli xil ko'rinishdagi masalalarga duch keladilar va bu ko'pchilikda qiyinchilik tug'diradi.

O'quvchilarda ushbu masalalarni yechimida ko'nikma so'ng malaka hosil qilib borish kerak. Masalaning to'g'ri javobini olish uchun bolalarni boshlang'ich maktabdan, hatto bog'chadan eng oddiy masalalarni yechishga, uning mohiyatini tushunishga o'rgatish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalaning ta'limiy ahamiyati matematik va pedagog olimlar tomonidan asoslab berilgan. Bunda matnli masalalarning quyidagi ta'limiy ahamiyatiga e'tibor berish kerak.

- matnli masalalar o'quvchilarning bilim darajasiga qiziqish vositasida ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- matnli masalalar o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini rivojlantiradi;
- matnli masalalar o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmasini tartibga soladi va o'stiradi;
- matnli masalalar vositasida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. [2; pp. ,207-209]

Mazkur matnli masalaning ta'limiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda mazmunan boyib boradi.

Masalani yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog'i lozim.

1. Masalani tinglashni o'rgatish va uni mustaqil o'qiy olish;
2. Masalani dastlabki analiz qilish, ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish;
3. Masalani qisqa yozish malakasi, masalani matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik (*terminlar*) atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklini belgilash kerak.
4. Amal tanlashni asoslab berish, so'ngra yozish rejasini tuzish;
5. Yechishni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish.

Masalan: Murodda 4 ta sa'va bor. Akbarda esa undan 3 ta ortiq sa'va bor. Akbarda nechta sa'va bor?

Murodda – 4 ta

Akbarda - ? 3 ta ortiq.

Akbarda nechta?

Yechish: $4+3=7$ ta. Javob 7 ta. [3. 57-b]

6. Masala yechimini tekshira olish malakasi.

Masala yechimini tekshirish degan soʻz, yechimning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini aniqlash deganidir. Masala yechimini tekshirishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

A) olingan javob bilan masala sharti oʻrtasida moslik oʻrnatish ;

B) teskari masala tuzish va yechish;

V) masalani boshqa usullar bilan yechish;

G) javobning chegaralarini aniqlash (*javobini chamalash*);

D) grafik tekshirish.

Masalalarning modelini toʻgʻri tanlay va qoʻlly bilish, turli masalalar va ularning turli usullarda yechilishini oʻquvchilarda oldindan koʻra bilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Modellashtirish usulida tushuntirilgan masala bolaga “dahshatli” koʻrinmaydi. Psixologik jihatdan ham yengil tuyiladi. Ular masalalarni tasavvur qilgan holda yecha oladilar.


Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarning psixologik holatini yashilash, ularni turli zoʻriqishlardan asrash, bilimlarini turli qiziqarli masalalar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyatga kasb etadi.


Biz boshlangʻich sinflarda masalalardan foydalanish maqsadlari, ularning mazmuni, oʻquvchilarning aqliy qobiliyati, masalalarning bajarilish ketma –ketligi, masalalarni bajarish metodi va ularning tashkiliy shakllari orasida funksional xarakterga ega boʻlgan bogʻliqlik mavjud degan fikrga keldik

Biz shunday sistemani tuzishimiz lozimki, u nafaqat kichik maktab oʻquvchilariga matematika oʻqitish metodikasini toʻliq qamrab olganligi bilan emas, balki rivojlantiruvchi taʼlim maqsad, vazifalarini amalga oshirishning asosiy mexanizmi hisoblangan faoliyatli metodning markaziy oʻrin tutishini ham aytib oʻtishimiz kerak.

Bu sistemani toʻliq amalga oshirilishida biz boshlangʻich sinflarda oʻrgatiladigan masalalarni quyidagi belgilarga ega degan xulosaga keldik: oʻzlashtirishni tashkil qilish usuli, oʻquvchilarning oʻquv bilish faoliyatini ragʻbatlantirish va ularda motiv uygʻotish usuli, taʼlim metodlarini amalga oshirish shakllaridan biri, nazariya va amaliyotni bogʻlashga xizmat qiladigan muhim omil.

Biz masalalar yechish metodik sistemasi strukturasi quyidagi koʻrinishda (3-rasm) tasvirladik.





3-rasm. Masalalar yechishning metodik sistemasi

[3; 9-10-bet]

Demak, boshlang'ich maktabda matematika o'qitishda o'quvchini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakli, metodlari va vositalarining yetakchi faoliyat turini shakllantirishga mos shartlaridan biri matematika ta'limida masalalardan keng foydalanishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, matnli masalalar boshlang'ich sinflar matematika kursi mazmunining salmoqli qismini tashkil etadi. Matnli masalalar yechishda avvalo bola tafakkuri, tasavvuri shakllanadi. Uning asosiy strukturasi hisoblangan ma'lum qism, shart qism va savol qismini ochib berish qobiliyati shakllanadi. Matnli masalalar asosan hayotda yuz beradigan tabiiy jarayonlarning matematik yechimi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 07.05.2020 y., PQ-4708. "Matematika sohasi-ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. Kolyagin Yu.M., Oganesyanyan V.A., Sanninsky V.Ya., Lukanin G.L. —Method of teaching mathematics in primary school. General methodology. Textbook. manual for the student nat. - mat. fac. ped. Institutes "(pp. 27-28,207-209,349-351)
3. Boshlang'ich sinflarda masala yechishga o'rgatish metodikasi' Xudoynazarov Ye. M Qo'chqorov D.I. Darslik. 'Bokmany Print' Toshkent-2022 9,10-bet

4. Matnli masalalarni yechish metodikasi”. Merajova Sh.B., Merajov N.I., Xoliqova M.Q.. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2022 5-bet

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN
ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Raxmatova Dildora Saydullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining 1-bosqich magistranti

Tel: 90 418 80 81 e-mail: raxmatovadildora74@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinganligi, ta'lim jaraenida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligi bayon qilingan. Ta'lim o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirilganlik darajasining oshishi, shuningdek axborotlardan foydalanish ko'lamining kengayishi ta'lim samaradorligini belgilashga xizmat qilish bayon qilingan.

Kalit so'zlar. axborot-kommunikatsiya, zamonaviy ta'lim, ta'lim, pedagogika, predmet, dalil, voqea, hodisa, psixologiya.

Annotatsiya. В данной статье утверждается, что развитие образования основано на требованиях времени, что объем полученной информации учитывается при оценке результатов образования, а также о том, что вопрос работы с информацией в процессе образования должен постоянно совершенствоваться с учетом требований времени. Установлено, что образование непрерывно выполняет задачу формирования и развития у учащихся навыков получения и обработки информации, а повышение уровня усвоения информации обучающимися, а также расширение сферы использования информации служит определению эффективности образования.

Ключевые слова. информация и коммуникация, современное образование, образование, педагогика, предмет, свидетельство, событие, явление, психология.

Abstract. V dannyoy state utverzdaetsya, chto razvitie obrazovaniya osnovano na trebovaniyax vremeni, chto obem poluchennoy informatsii uchityvaetsya pri otsenke resultatsii obrazovaniya, a takje o tom, chto vopros raboty s informatsiey v protse obrazovaniya doljen postoyanno sovershenstvovatsya with uchetom trebovaniy vremeni. Ustanovleno, chto obrazovanie nepreryvno vpolnyaet zadachu

formirovaniya i razvitiya u uchashchikhsya navykov polucheniya i obrabotki informatsii, a povyshenie urovnya usvoeniya informatsii obuchayushchimisya, a takje rasshirenie sfery ispolzovaniya informatsii slujit opredeleniyu effektivnost obrazovani.

Key words. *information and communication, modern education, education, pedagogy, subject, certification, society, development, psychology.*

Axborotlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, uni uzatish va qabul qilishning XXI asrdagi imkoniyatlari samarali ravishda o'sib bormoqda. Axborot maydoni fan va ijtimoiy haet taraqqiётining muhim omiliga aylandi. Ijtimoiy taraqqiёт barcha sohalar rivojlanishida aks etib boradi. Xususan, ta'lim sohasi ham ijtimoiy haetning bir qismi sifatida doimiy ravishda ijtimoiy haet yutuqlarini o'zida aks ettiradi.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi. [1]

Ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi fundamental o'zgarishlar, yangicha endashuvlarni taqozo etadi. Shuning uchun axborotlardan samarali foydalanishning yo'llari va imkoniyatlarini topish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanib, ta'lim oluvchilarga axborotlarni o'zlashtirish, interpretatsiya qilish, qayta ishlash, ularning imitatsiyalarini yaratish, shu bilan birga, yangi g'oyalar asosida axborotlarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan axborotlarni integratsiya qilishga o'rgatishi, o'quvchilarni o'quv va haetiy faoliyatida axborotlardan foydalanish kompetentligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirib borilishi bilan birga uni qo'llay olishga o'rganilishi ularni interpretatsiya qilish, qayta ishlash va imitatsiyalarini yaratish imkoniyatlarini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmonida - ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish oz aksini topgan[2]

Qadimgi Grek faylasufi Suqrot «o‘qituvchining ijodkorligi, ... bu tayèr axborotni o‘quvchiga yetkazishga emas, balkim, o‘quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligidadir» deb ta’kidlagan. Ko‘p holatlarda o‘zlashtirilgan axborotlar miqdori (hajmi) ta’lim samarasi sifatida qaralib, ta’lim natijalarini baholashda o‘zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinada. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o‘zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar hamda haètiy faoliyatlar davomida qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarida ham kompetensiyaviy èndashuvga asoslangan ta’limda ta’limning natijasiga ahamiyat berilishi va bunda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlar hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qo‘llay olishiga e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan

Axborot tushunchasiga ilmiy adabietlar, lug‘atlarda turli ta’riflar keltirilgan. Masalan, predmet, dalil, voqea, hodisa va jaraènar haqidagi ma’lumotlar, shu kabi obyektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar, qiziqish uyg‘otishi mumkin bo‘lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo‘lgan jami dalil va ma’lumotlar, shuningdek, «axborot» (lot. information – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan buèn qo‘llanib kelinaètgan, kibernetikaning taraqqièti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma’no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha sifatida ta’riflar keltirilgan.

Axborot termini kishilik jamiyatining barcha jabhalarida qo‘llaniladi va ular asosida ta’lim – tarbiya jaraèni olib boriladi hamda pedagogik faoliyat boshqariladi. Axborotlar jamiyat haètida muayyan darajada ahamiyat kasb etib, xususan, ta’lim - tarbiya jaraènlarini boshqarishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi, chunki ular obyektidan olingan axborotlarni tizimlarga (qism tizimlarga) ajratish va qayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo‘yicha uzatish algoritmlarini amalda joriy etishga keng imkoniyatlar yaratadi. Jahon sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir a’zosi, o‘zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Ya’ni jamiyatning har bir a’zosi axborot iste’molchisi hisoblanadi. Axborot iste’molchisi o‘z ehtièjini qondirish bilimlarni oshirish, ta’lim olish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs va shaxslar . Demak, o‘quvchilar ham axborot iste’molchilari hisoblanadi. Ta’lim jaraènida shu bilan birga, kundalik faoliyatlar davomida o‘quvchilar axborotlarning faol iste’molchisi sifatida o‘z o‘quv faoliyati jaraènida zarur axborotlarni o‘zlashtirib boradi. Axborot iste’molchilari sifatida o‘quvchilarning axborot iste’moli madaniyatini tarbiyalash yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib ularda axborot iste’moli madaniyatining funksiyalariga alohida urg‘u berib o‘tilgan.

Axborotdan foydalanish ko‘lamlari jamiyat rivojlanishi darajasini belgilaydi YUNESKO hulosasiga ko‘ra, axborotlashtirish – bu

axborotlarni to'plash, saqlash va uzatish vositalarining keng qo'llanilishidir. U mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi bilimlarni shakllantirish hamda ularni joriy boshqarish, yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun qo'llashni ta'minlaydi.

Ta'lim o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirilganlik darajasining oshishi, axborotlardan foydalanish ko'lamining kengayishi ta'lim samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

Axborot bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish jaraenlaridan iborat. F.M. Qo'chqorova tadqiqot ishlarida

o'quvchida axborotlarni qayta ishlash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish komponentlari bo'yicha o'quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratishga urg'u bergan. Axborotlardan samarali foydalanishning asosini axborotlar mazmuni va mohiyatini tushunish tashkil etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot tushunchasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Axborotlar mazmunini tushunish orqali darslarga qiziqish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish saqlanib qoladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga axborot atrof-muhit obyektlari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari, hodisalar va jaraenlar to'g'risidagi ma'lumotlar sifatida tushuntiriladi.

Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari axborotlarning asosiy mazmunini, keng doirada qo'llanadigan ma'nosini tushunadilar. Shuningdek, ularni atrofda real voqeliklar mazmunini aks ettirgan axborotlardan ko'ra to'qima obrazlar, haëliy voqealar, mavhum tushunchalar mazmunini aks ettirgan axborotlar ko'proq jalb qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini tushunmaydi. Ularni o'quvchi o'z ongida aks ettira olmaydi. O'quvchi uchun ma'lum haëtiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan, èki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-hodisalar ko'proq tushunarli. Shuning uchun axborotlarning tub mazmuni hamda ikkilamchi ma'nosi bilan tanishtirib borish muhim.

O'quvchilarning axborotning muloqot jaraenini ta'minlashga xizmat qiluvchi funksiyani anglashlari muhim. Ta'lim jaraeni – bu avvalo axborot almashinish jaraenidir. O'qituvchi o'quvchiga tegishli axborot beradi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida baen qilingan axborotlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi.

Katta èshli insonlardan farqli ravishda, kichik maktab èshidagi o‘quvchilarda axborotlar bilish jaraènlari (sezgi, idrok, tafakkur kabilar) ni, nutqining ravonligini, ziyraklik, sinchkovlik kabi xislatlarini rivojlantirishi bilan muhimdir. Haqiqatan ham, taraqqiy etib boraètgan axborotlar oqimi jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning asosini an’anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy èndashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Ta’lim jaraènida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amalièti ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko‘nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo‘lgan talablarning ortishi» kompetensiyaviy èndashuvga asoslangan ta’limni tashkil etish

zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy èndashuvga asoslangan ta’lim muammolari o‘rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi. M.M.Vahobov fikricha «kompetensiyaviy èndashuvga asoslangan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir»

Ta’limda kompetensiyaviy èndashuv «... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy haètda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko‘nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o‘qitish jaraènida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi».

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида» ги 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 14 (774)-сон, 230-модда // www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. 6 (766)-сон, 70 модда // www.lex.uz

3. Абдуллаева Б., Тошпулатова М., Садикова А., Жабборова Ю., Мухитдинова Н. Математика: ўқитувчилар учун методик қўлланма (1 синф).
4. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». 2014. – 176 б.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI ANIQLASH YO'LLARI

Jumayeva G.T
S.Sh. Turg'unova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti p.f.f.d (PhD)v/b dotsenti, magistri
E-mail: gulnorajumayeva117@gmail.com tel.: 91-339-63-32

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalari yordamida o'quvchi qiziqishini aniqlash yo'llari, vazifalari va kelib chiqishi haqida batafsil aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, texnologiya, qiziqish, didaktika, pedagogika, usul.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.[1]

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg'ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog'liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta‘minotini yaratish;
- ta‘lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta‘lim usullarinigina qo‘llashni maqsad qilgan bo‘lsa, hal etib bo‘lmaydi. Maqsadga erishishning eng to‘g‘ri yo‘li, bu dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Informatika fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir: o‘yinli texnologiyalar; muammoli o‘qitish; dasturlashtirilgan o‘qitish; kompyuterlashtirilgan o‘qitish; modulli o‘qitish.

XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga harakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jixatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma‘lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta‘limdagi axamiyatligidir. [2]

Bu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislar fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Ta‘kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta‘limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta‘lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi, xolos. O‘quvchini aqliy rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi guruhdagi o‘yinlarni ajratish mumkin.

1-guruh. Buyumlar va predmetlarga bog‘liq bo‘lgan predmetli o‘yinlar. Bunda o‘quvchi o‘yinchoq-predmet orqali moddiy olamni, ularning xususiyatini anglashi mumkin.

2-guruh. Intellektual faoliyatni shakllantiruvchi sujetli — rolli ijodiy o‘yinlar. Masalan, «Baxtli tasodif», «Nima? Qayerda? Qachon?» va boshqalar. Bunday

o‘yinlar nafaqat ko‘ngil ochuvchi vosita, balki ulkan evristik va ishonitiruvchi energiya manbaidir.

3-guruh. O‘quvchining aqliy qobiliyatini rivojlantiruvchi tayyor qoidalarga asoslangan didaktik o‘yinlar. Qoidalarga ko‘ra, u o‘quvchidan anglashni, taqqoslashni, qismlarga ajratishni, umumlashtirishni, muhimi bilishni talab etadi.

4-guruh. Kattalarning kasbiy faoliyatlarini ifodalovchi texnik-konstruktorlik o‘yinlari. Ular o‘quvchida o‘z ishini rivojlantirish, zaruriy materialni yig‘ish, o‘zini va o‘zgalar faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyatlarini hosil qiladi. Mehnat faolligi bilish faolligiga undaydi.

5-guruh. Psixik muhitda sodir bo‘luvchi intellektual o‘yinlar. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajalarini ko‘rsatuvchi taqqoslash imkonini beruvchi, musobaqa asosida o‘tkaziladigan o‘yinlar. Ular o‘zini shakllantirishga va demak, aqliy faollikka undaydi. Yuqorida tavsiflangan o‘yinlarni o‘quv jarayonida qo‘llash natijasida o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatlarini keng boshqarish imkoniyatlari hosil bo‘ladi.

Tajribalardan kelib chiqib, quyida Informatika fanini o‘qitishda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan quyidagi o‘yinli texnologiyalardan namunalar keltirib o‘tamiz:

Zanjir o‘yini. Guruh 4ga bo‘linib, har bir guruhdan 1 o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o‘quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi aytganini va o‘zinikini qo‘shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o‘quvchi aytgan atamalarga yana o‘zi yangisini qo‘shib aytadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi, eng oxiri o‘yindan chiqib ketmay qolgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. O‘yin xotirani mustahkamlashga juda qo‘l keladi.

Karrali sonlar. O‘yinda ishtirok etuvchi guruh talabalaridan tuzilgan jamoa o‘yinga shay turadi. Navbati bilan sonlar tartibi keltiriladi. Lekin to‘rtga karrali sonning navbati etganda, shu sonning o‘rnida talaba, albatta kompyuterning bironta buyrug‘ini yoki yordamchi klavishning vazifasini aytishi shart. Qoidani buzgan har bir o‘quvchi o‘yinni tark etadi. Ma’lum vaqt davomida o‘yinni faol davom ettirgan ishtirokchi g‘olib sanaladi. O‘yin xotirani charxlashda juda samarali hisoblanadi.

Men kimman? Bu kompyuterning qurilmalarini tavsiflashda eng yaxshi usuldir. Bir o‘quvchi o‘zining «Kimligini topolmayapti?» Unga boshqa o‘quvchilar yordamga keladi. «Men qanday qurilmaman?», «Men qayerda ishlatilaman?», «Eng yaxshi qobiliyatim qachon namoyon bo‘ladi?», «Qaysi qurilmalar men bilan hamohang ishlaydi?» va hokazo. Qanchalik ko‘p savol berilib, sharhlar so‘ralsa, shunchalik o‘quvchi bali kamayadi. Kim topqirroq bo‘lsa, tezroq jumboqni yechishi kerak bo‘ladi. Nafaqat qurilmalarda keyinchalik dasturiy ta‘minotlar, menyu bo‘limlarining vazifalarini tavsiflashda ham o‘yindan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. O‘yin o‘quvchida obyektning xususiyatlarini anglashda, xotirani rivojlantirishda, bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha mulohazalarni umumlashtirib, o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash natijasida quyidagi mulohazalarni tavsiya etamiz:

1.O‘yin turli yoshdagi bolalar faoliyatini rivojlantirishning mustaqil shakli hisoblanadi.

2.O‘yinlar ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash faolligini oshirishdagi eng erkin shakldir.

3.O‘yin rivojlantiruvchi amaliyot, sababi: bolalar o‘ynaganlari uchun rivojlanadilar, rivojlanish uchun o‘ynaydilar.

4.O‘yin o‘z-o‘zini anglashda, o‘z-o‘zini boshqarishda aql va ijodda erkinlikdir.

5.O‘yinda o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar, hodisalar va fanning mavjud xususiyatlarini tushuntirish uchun savollarni aniq ifodalay boshlaydilar.

6.O‘yinda o‘quvchilar o‘z fikrini bayon eta va himoya qila oladilar.

O‘quv jarayoniga doir o‘yinlar o‘quv predmetlar bo‘yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. [3]

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o‘stiruvchi oddiy o‘yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo‘lgan intellektual o‘yinlardan iborat bir qancha o‘yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha o‘yinlarda o‘yinchi o‘yin shartlarini tezda o‘zlashtiradi va o‘ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. O‘yin qoidalarini bajarish jarayonida o‘yinchi o‘zining maqbul qarorlarini o‘yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘yindagi musobaqa esa shaxsiy sifatning tinmay yaxshilanib borishiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy axborot texnologiyasini yaxshi bilgan va undan to‘g‘ri maqsadlarda foydalana olgan o‘quvchigina kelajakda o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishi, kasbiy faoliyatida to‘g‘ri foydalana olishi va albatta komil inson sifatida shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Dilova N.G. (2021). O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.

2.Rasulova Z. (2021). Texnologiya darslarida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlari. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 360-369 betlar.

3.Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge—as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

4.Elena V. Eliseeva , Lyudmila A. Zyateva , Irina I. Kiyutina , Veronika P. Weiler , Oksana N. Shkityr and Galina S. Isakova. Gamification Technology in the Higher

School Educational Process as a Way of Improving of Professional Training for the Modern Economy International Journal of Applied Business and Economic Research. Volume 15 • Number 11 • 201

5. J.G. Tursunpulatovna. Psychological-pedagogical characteristics and Structural components of the development of Professional culture among school teachers Academia Science Repository 4 (5), 2023.P. 213-222

6. Jumayeva G. Modern Approach to Teaching Pedagogical Skills of Teachers //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 9. – С. 195-197.

7. Жумаева Г. Т. Современные технологии обучения учащихся //Евразийский научный журнал. – 2016. – №. 6. – С. 456-458.

8. Жумаева Г. Т. ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //НАУЧНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ОТКРЫТИЯ 2019. – 2019. – С. 188-190.

9.Жумаева Г. Т. Основные тенденции развития педагогического мастерства учителя //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 5. – С. 9-11.

SPORTS PUBLICATIONS: LANGUAGE, STYLE AND EDITORIAL ISSUES

Nargiza Mirzaeva

PhD, Associate Professor of the Department of

Uzbek Language and Literature

of Journalism and

Mass Communications University of Uzbekistan

Abstract. The use of language in a newspaper depends on the audience of the material. This is especially important in specialized publications. This article describes the language and style of materials related to sports. In addition, an analysis of methodological errors found in sports texts is given.

Keywords: specialized publication, sports journalism, sports websites, language, style, editing, grammatical errors.

It is known that the rapid recognition of each country on a global scale and increased prestige depend on a number of factors, including sports. Today, sports have become so popular that it is not an exaggeration to say that millions of people regularly play sports.

Sport serves to create morally mature, spiritually rich, highly educated, physically strong, mature in all respects. In addition, along with sports, press publications specializing in sports programs, television and radio programs are developing all over the world as a branch of general journalism. Look at any publication and you will see that sports have not been left behind. Because this area is becoming an important factor in expanding the audience of this publication. In addition, newspapers and magazines dedicated only to sports are published in all countries of the world. There are similar publications in our republic. So, it is clear that along with sports, its journalism is gaining high positions among the masses.

We can learn about the extent to which sports journalism, which has become more professional, is developing in Uzbekistan from the activities of publications specializing in this field.

The resolution of President Shavkat Mirziyoyev dated February 15 of this year “On measures to further improve the management system in the field of culture and sports” opened a new era in the development of sports in our country. According to the resolution, the State Committee for Physical Education and Sports of the Republic of Uzbekistan was created. Involving a significant part of the population

in sports, raising a physically healthy generation, developing the sports industry and infrastructure, holding mass sports events and competitions in cities and regions, selecting, training and improving the skills of talented athletes together with the National Olympic Committee. Its main objectives were identified as sports federations and associations, personnel training, the introduction of modern technologies in the field and the expansion of international relations.

It is natural that websites specializing in sports such as "Sport", "Interfutbol", TV channel "Sport", "championat.asia", "stadion.uz", "tribuna.uz" differ from each other in terms of language and style. Journalists working in it should know the terms of their specialized sport well. So to speak, he should know his work from thread to needle. After all, in the process of conveying information, it is necessary to explain to the audience the words that require some explanation.

Information needs to be communicated to the public in understandable and simple language. The reader expects a lively, fast and easy-to-understand style from the newspaper materials, not a standard, regular, strict way of expression. Accordingly, avoiding speech patterns and patterns encourages journalists to search for new tools, new ways of expression, thereby ensuring the effectiveness of information and creating their own personal style, conducting research on its further improvement. First of all, based on world experience, let's look at our newspapers from the perspective of international sports publications. Almost 90% of foreign sports publications are printed in "A-2" format. The main goal is to increase the impact of photos and captions. Photos are the heart of sports newspapers. A great deal of information can be conveyed through a single photo and caption. Some of our newspapers have taken this into account and are using these methods effectively. The various, eye-pleasing pictures on the first pages of the newspaper will be the proof of our above opinion.

Sports journalism should also be more popular in reporting events in the world of sports. There is a disconnect between sports journalism and the audience these days. What is it? Of course, a more literary approach to the language of journalism, avoiding the vernacular, is one of those reasons. If we use vernacular words instead of violent literary language, we lose that disconnect, especially in spoken language. Especially a sports commentator should embody this quality. One of the sports is football. It is a game of millionaires. Needless to say about it. Every fan knows some of his terms. The words ball, goal, penalty are used a lot. But at the same time, football terms such as pressing and raid have entered the speech, so finding an Uzbek alternative to these words requires a journalist to know the language well. Therefore, the journalist should comment on the terms used in the process of using these words.

In addition, it is necessary to pay attention to the language, style and, of course, the title of the text given in each publication material. A journalist is required to work tirelessly and work on himself in order to deliver the material effectively and clearly to the audience. The most important factor in the expression of opinions is the thorough knowledge of the possibilities of language tools and the ability to use them in practice. For example, while looking at the materials on the pages of "Interfutbol" newspaper, we notice spelling and stylistic errors in the texts.

"Our compatriots, who celebrated the championship of Kazakhstan with "Ordabasi" yesterday, answered *this success and several other interesting questions (ушбу маваффақият ва бошқа бир нечта қизиқарли саволларга жавоб беришди)* in an interview with the reporter of Championat.asia.uz" [1,12]. The sentence is logically understandable, but stylistically incorrect. A spelling mistake was also made in the sentence.

"*in some ways, Diego was lucky (қайсидир жиҳатдан Диегога омад кулиб боқди):* yes, "Seville" is buried in problems, but he has no obligation to achieve high results, free from excessive pressures" [1, 21].

"Koreans buy several *T-shirts with the names* (тушурилган футболкалардан) of their compatriots from this store every day" [1, 28]. There is a spelling mistake in the sentence. The word "Тушурилган" is misspelled. Used in a colloquial manner.

Another example. "*Lionel Messi and Cristiano Ronaldo, who have risen to the level of genius in modern football, are at opposite poles in terms of character, behavior and attitude to everyday life. Their views may even conflict in some respects*" (Замонавий футболда даҳо даражасига кўтарилган Лионель Месси ва Криштиану Роналду феъл-атвор, хулқ ва кундалик ҳаётга муносабат нуқтаи назаридан турли қутбларда. Уларнинг қараишлари ҳаттоки, қарама-қарши келиши ҳам мумкин баъзи жиҳатларда) [2,27]. The sentence is grammatically incorrect.

So, when publishing news and analytical materials about sports in the press, when commenting on sports-related materials in radio and television broadcasts, oral and written forms of speech are used, it is logical that both speeches should be literate and popular if the statement is used together with a photograph or image, it must be harmonious. To achieve this, specialized sports journalists in the press, radio and television are required to constantly work and research their performances.

REFERENCES:

1. Миллий жамоага боримни беришга тайёрман. //Интерфутбол, 26 октябрь 2023 йил, 85-сон.

2. Бир йилда уч уриниш. //Интерфутбол, 26 октябрь 2023 йил, 85-сон.
3. Ашаддий рақиблар, ибратли уйғунлик. // Интерфутбол, 26 октябрь 2023 йил, 84-сон.
4. Nargiza Mirzayeva. (2023). RERAYTER FAOLIYATIDA MATN BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI. *Konferensiyalar / Conferences*, 1(1), 53–58. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1136>
5. Mirzayeva, N. (2014). JOURNALIST SPECIALIZATION IN MEDIA WORLD: LANGUAGE AND STYLE SPECIFICS. *The Way of Science*, 52.
6. Khidoyatovna, S. S. (2022). NEW APPROACHES IN THE STUDY OF MEDIA TEXTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 368-372.
7. Якубова, Ф. А. (2023). ГАЗЕТА МАТЕРИАЛЛАРИНИ ТАХРИР ЖАРАЁНИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 455-458

Yangi davrda Misr

Kamolov Samandar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi davrda Misr tarixini yoritilgan. 1517-yilda turk sultoni Salim I Misrni egallab, uni Usmonli turk davlati tarkibiga qo'shib oldi. XVIII-asr 2-yarmidan Usmonli turk saltanati tanazzulga uchray boshladi. Bundan foydalangan mamluk beklaridan Alibey mustaqil davlat tuzishga erishdi (1769), Alibeyning vafotidan so'ng taxt uchun kurash kuchaydi. XVIII-asr oxiri — XIX-asr boshlarida Fransiya va Angliya Misrni bosib olishga harakat qildilar.

Kalit so'zlari; Misr ingliz floti, Fransiya, Angliya

1798-yilda Misrni Napoleon armiyasi egalladi. 1801-yilda ingliz floti fransuz floti ustidan g'alabaga erishdi. 1805-yilda hokimnyat Muhammad Ali posho qo'liga o'tdi. Muhammad Ali Misrni kuchli, mustaqil davlatga aylantirish maqsadida mamluk beylariga qarshi kurash olib bordi. Mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligini rivojlantirdi. Bu davrda birinchi movut, to'qimachilik fabikalari, metallurgiya, qand, oyna zavodlari qurildi. Yevropa usulidagi maktablar ochildi, yoshlar g'arb davlatlariga o'qishga yuborildi. Fransuz harbiy maslahatchilari yordamida armiya qayta tuzildi. Mahalliy aholi armiyaga o'lna boshladi (ilgari faqat yollanma askarlar bo'lar edi). Muhammad Ali Suriya, Falastin va Arabiston yarim orolning bir kismini bosib oldi (1831—33). Turkiyaga qaramlikdan qutulish uchun 1831-yilda unga qarshi urush ochib, turk armiyasini mag'lubiyatga uchratdi. Lekin Angliyaning ikkinchi Turkiya-Misr urushi (1839—40)ga aralashuvi natijasida Misr armiyasi yengildi. Bundan tashqari, Angliya 1838-yilgi ingliz-turk savdo bitimidagi shartlarni Misrga maj-buran qabul qildirdi. Bu esa mamlakatga ingliz mollari ko'plab kirib kelishiga yo'l ochib berdi. Suvaysh kanali ishga tushirilishi (1869) bilan Angliya va Fransiya Misrda zo'r berib o'z hukmronligini o'rnatishga urindi. 1882-yil inglizlar armiyasi Misrni egallab oldi va xalq qo'zg'olonini sha-fqatsiz bostirdi. Mamlakatda mustamlaka tartibi o'rnatildi. Inglizlar bank va moliya ishlarini, irrigatsiya qurilishlari, aloqa yo'llarini o'z qo'llariga oldi. Misr faqat paxta yetishtiradigan davlatga aylanib qoldi. 20-asr boshlarida Mustafo Komil (1874—1908) rahbarligida milliy ozodlik harakati avj oldi. Ammo mustamlakachilar xalq harakatini bostirdilar. 1914-yilda Misrda Britaniya protektorati o'rnatildi.

1918-yilda Zag'lul Sa'd boshchiligida „Misr delegatsiyasi“ (keyinchalik „Vafd“) partiyasi tuzildi. Bu partiya 1919—1924-yillarda inglizlarga qarshi ko'tarilgan

qo‘zg‘olonga boshchilik qildi. Xalqning kurashi natijasida ingliz protektorati bekor qilinib, Misr mustaqil podshoxlik deb e‘lon qilindi (1922). 1923-yil Misr konstitutsiyasi kabul etildi. Bu konstitutsiya parlament tuzishni nazarda tutdi. U ayrim erkinliklar — siyosiy tashkilotlar tuzish va matbuot erkinligini berdi, shu bilan birga, podshohga deputatlar palatasini tarqatish, parlament chaqiriklari muddatini surish, vazirlarni tayinlash va bo‘shatish huquqini ham berdi. Shunday bo‘lsada, Angliya Misrda o‘z mavqegini, ya‘ni davlat idoralari hamda harbiy kuchlar ustidan nazoratini, mamlakatda ingliz armiyasini saqlab qoldi. Parlament saylovida „Vafd“ partiyasi g‘alabaga erishdi va Zag‘lul Sa‘d boshchiligida yangi xukumat tuzildi. Biroq mamlakatda milliy ozodlik kurashi to‘xtamadi.

1936-yil Angliya bilan Misr o‘rtasida shartnoma tuzildi. Shartnomaga muvofiq, inglizlar Misrni bosib olishni to‘xtatdilar, lekin mamlakatda harbiy bazalar va armiya sakdash huquqini oldilar. Ikkinchi jahon urushi davrida Misr Italiya-Germaniya va Angliya armiyalari o‘rtasidagi jang maydoniga aylandi. Urushdan keyin Misrda milliy ozodlik harakati yanada kuchaydi. Arab-Isroil urushi davri (1948—49)da mamlakatda reaksiya avj oldi, so‘l vafdchilarni, talabalar harakati rahbarlarini qamash boshlandi. Bunga qarshi xalq harakati yanada avj oldi. Parlament 1936-yil gi Angliya-Misr shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shundan keyin Angliya Misrga qarshi agressiya uyushtirdi. Misr xalqi mustamlakachilarga qarshi partizan urushini boshladi. 1952-yil 23-iyulda Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi „Zubbot alahror“ („Ozod zobitlar“) uyushmasi armiyaga tayanib, davlat to‘ntarishi o‘tkazdi. Davlat hokimiyati Inqilobga rahbarlik kengashi ixtiyoriga o‘tdi. General Misr Najib kengash raisi va hukumat rahbari etib tay-inlandi; amalda kengashga Nosir rahbarlik qildi. Yangi hukumat agrar islohot o‘tkazib, falohlarni yer bilan ta‘minladi, mamlakatni industrilashtirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish siyosatini olib bordi. 1953-yil 23-iyunda Misr respublika deb e‘lon qilindi. 1953-yil o‘rtalarida yangi tuzum rahbarlari orasida ikki oqim — Najib boshchiligidagi eski demokratiya va J. A. Nosir rahbarligidagi inqilobiy demokratiya tarafdorlari paydo bo‘ldi. Zidsiyat keskinlashib, natijada Najib hukumatdan chetlatildi, Jamol Abdul Nosir bosh vazir bo‘lib qoldi (1954). Angliya — Misr shartnomasi (1954)gamuvofiq, 1956-yil 18-iyunda oxirgi ingliz askari Misrdan chiqib ketdi. Misrning siyosiy suvereniteti tiklandi.

1956-yil 23-iyunda Misr Respublikasining konstitutsiyasi qabul qilindi va Jamol Abdul Nosir prezident etib saylandi. Prezident Suvaysh kanali kompaniyasi davlat ixtiyoriga olinganligini e‘lon qildi. Shunday qilib, iqtisodiy taraqqiyot dasturini mablag‘ bilan ta‘minlashning muxim manbai qo‘lga kiritildi. Shundan keyin Misrga

qarshi Angliya—Fransiya —Isroil tajovuzi boshlandi. Xalq bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘aldi. Tinchliksevar xalqlarning talabi bilan ingliz, fransuz (1956-yil dekabr) hamda Isroil (1957-yil mart) armiyasi Misrdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.

1958-yil 1-fevralda Misr va Suriya hukumatlarining o‘zaro kelishuvi natijasida yangi unitar (birlashgan) davlat — Birlashgan Arab Respublikasi (BAR) tuzildi. Suriyada 1961-yil 28-sentabrda davlat to‘ntarishi o‘tkazilib, Suriya BAR tarkibidan chikdi. Misr BAR nomini saqlab qoldi. 1971-yil sentabrdan BAR Misr Arab Respublikasi deb nomlandi.

1963-yilda J.A.Nosir rahbarligida Arab Sotsialistik Ittifoqi (ASI) tuzildi. ASI 1952-yil iyul inqilobining maqsad va tamoyillarini ximoya qilish, qolokdikni tugatishni o‘zining asosiy burchi deb bildi. 1964-yil 23-martda yangi muvaqqat konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq, hamma korxonalar xalqniki deb hisoblandi. Shu bilan birga, xususiy va kooperativ mulk xdm saqlanib qoldi. J. A. Nosir prezidentligi davrida muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi. Banklar, ko‘pgina yirik va o‘rta savdo hamda sanoat kompaniyalari davlat ixtiyoriga olinishi, keng miqyosda yangi korxonalar qurilishi tufayli iqtisodiyotda qudratli davlat sektori barpo etildi.

1967-yil bahoridaYaqin Sharqdagi mojaro keskinlashdi. 5—10-iyun kunlari Isroil qo‘shinlari Sinay yarim orolni bosib olib, Suvaysh kanalining sharqiy sohiliga yetib keldi. Xalqaro jamoatchilik va avvalo BMT Xavfsizlik Kengashining talabi bilan urush harakatlari to‘xtatildi. Ammo urush natijasida Misrning iqtisodiyotiga katta talafot yetdi. Urush tufayli Suvaysh kanali zonasidagi iqtisodiy hayot izdan chiqdi. Kanaldagi kema qatnovi 1975-yilgacha to‘xtab qoldi.

1968-yil 30-martda J.A.Nosir Isroil tajovuzi oqibatlarini tugatish uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etish dasturini bayon qildi. 2-may umumxalq referendumini bu dasturni ma’qulladi.

1970-yil 28-sentabrda J.A.Nosir vafot etdi. O‘sha yil 15-oktabrda A. Sadat prezident etib saylandi. Uning davrida bozor munosabatlarini rivojlantirish, iqtisodiyotning xususiy sektorini kuchaytirish va faollashtirish, mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va avvalo iste’mol mollari hamda xizmatlar hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘lini amalga oshirishga kirishildi. Biroq 1967-yil „olti kunlik“ urushda Isroil tomonidan bosib olingan Misr yerlarini (Sinay yarim orolni) qaytarib olish muammosi hal bo‘lmay qolayotgan edi. 1973-yil oktabrda Misr armiyasi Suvaysh kanalidan o‘tib, uning sharqiy sohiliga tushdi. Urush natijasida

muammoni hal etishning iloji bo'lmagach, o't ochish to'xtatildi va 1974-yilda qo'shinlarni bir-biridan yiroklashtirish haqida bitim imzolandi. 1979-yilda Kemp-Devid (AQSH)da tuzilgan sulx. shartnomasi asosida Isroil uzi bosib olgan yerlarni Misrga qaytarib berdi. Bu sulhga boshqa arab davlatlari qarshi chikdi va Misrni Arab davlatlari uyushmasidan chiqardi. 1981-yil 6-oktabrda A. Sadat diniy tashkilot a'zolari tomonidan o'ldirildi va o'sha yil 13-oktabrda Husniy Muborak prezident etib saylandi. Yangi rahbariyat ichki siyosiy vaziyatni, xalq noroziligini yumshatish tadbirlarini ko'rdi, ijtimoiy turmushni birmuncha erkinlashtirdi, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish yo'lida katta qadamlar qo'ydi. Misr tarmoqlarini jadal rivojlantirish orq-ali iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etish yo'li tutiddi. **Xulosa** qilib shuni aytish kerakki, Mamlakatni zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirish yo'lidan rivojlantirishni jadallashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Xalqaro maydonda og'ir-vazmin va epcil siyosat o'tkazila boshladi. Jumladan, Qo'shilmaslik harakati, Arab davlatlari uyushmasi, Islom konferen-siyasi tashkiloti bilan hamkorlik faollashtirildi. Yaqin Sharqdagi tinchlik jarayonini davom ettirish, arab-isroil mojarosini bartaraf qilish Misr tashqi siyosatining asosiy masalasi qilib qo'yildi. 1989-yilda Misrning Arab davlatlari uyushmasiga a'zoligi tiklandi. Misr — 1945-yildan BMTa'zosi. O'zRsuverenitetini 1991-yil 26-dekabrda tan olgan va 1992-yil 23-yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 23-iyul — Inqilob kuni (1952).

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛА
2. РИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6)
3. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
4. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.
5. Nazirov, B., & Bozorov, K. (2023). ACHIEVEMENTS OF UZBEK FOOTBALL IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: ANALYSIS AND RESULTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(3), 443-450

6. Nazirov, B., & Qalandarova, M. (2023). XUNNLAR TARIXI: TAHLIL VA NATIJALAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(2), 197-202.
7. Nazirov, B. (2018). Хитойнинг ўзаро алоқалар тарихига бир назар: илк ўрта асрлар мисолида. “Ноширлик ёғдуси”

Yangi davrda Singapur ta'lim tizimi

Nurullayev Oybek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bugun ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko'nikmaga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganidan ham anglash mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, Singapur, ilmiy-texnik rivojlanish,

Masalan, maorifga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri — Singapurni olaylik. Singapur Britaniya mustamlakasi bo'lgan davrda ichki sanoat, asosan, mineral yoqilg'i va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan edi. Shunga qaramay, o'sha davrda ham ta'lim fidoyilari yashirin tarzda bo'lsa-da, milliy ta'limni yuk-saltirishga, taraqqiy ettirishga o'zlarida kuch va jasorat topa olgan. Eng muhimi, qanday siyosiy-ijtimoiy voqelik ro'y bermasin, Singapur o'zi tanlagan yo'lda barqaror davom etgan. Mustamlakadan qutulib, ozodlikka chiqqach, o'zini juda tez o'nglab olganining bosh sababi ham shu aslida. Bugun Singapur ilmiy-texnik rivojlanish sohasida jahonda yetakchilardan biriga aylandi. Dongdor xorijiy oliy o'quv yurtlarida ilm-fanning eng zamonaviy yo'nalishlari va ilg'or texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlashga kelganda, Singapurdan «najot» topish rasm bo'ldi. Yer shari miqyosida olganda, Singapur olimlarining ko'pligi bo'yicha eng kuchli 47 davlat orasida beshlikka kirgan. Ta'sirchan tomoni shuki, Singapur yalpi ichki mahsulotga nisbatan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga mablag' sarflash bo'yicha sobiq mustamlakachisi — Buyuk Britaniyani ham ortda qoldirdi. Singapurda umumiy ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat. Mamlakat ma'muriy jihatdan 4 ta ta'lim hududiga bo'lingan bo'lib, har birida 7 ta maktab klasteri mavjud. Ular o'rtacha 12—14 boshlang'ich va o'rta maktabni o'z ichiga oladi.

PIRLS (Ifodali o'qish bo'yicha yutuqlarni o'rganuvchi xalqaro tadqiqot markazi) xodimlari o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, Singapur aholisi savodxonlik borasida dunyoda 1-o'rinda turadi. Singapurlik maktab o'quvchilari 1995-yildan buyon, ayniqsa, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS) bo'yicha o'tkaziladigan nufuzli xalqaro tanlovlarda eng yaxshi natijani ko'rsatmoqda. Shu o'rinda, Singapur ta'lim tizimi qanday qilib bu darajaga yetgani, uning zamirida nimalar yotishi ko'pchilikni

qiziqtiradi. Bunda, avvalo, davlat tomonidan olib borilgan jiddiy islohotlar beqiyos ahamiyat kasb etganini unutmash lozim. Jumladan, 1961—1991- yillarda Singapur hukumati maktab tizimi mustaqilligi va moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ko'tarish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratishga doir ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Maqsad faqat o'quvchilar shuurini turli fan bo'yicha ilg'or bilimlar bilan to'ldirish emas, balki ularda hayotiy ko'nikma va mas'uliyat hissini shakllantirish, birdamlik, o'zaro yordam, yurtiga va ishiga muhabbat, qiziquvchanlik, intiluvchanlik, jasorat va moslashuvchanlik jihatlarini qaror toptirish kabi dolzarb va nozik masalalarga e'tibor qaratilgan. Singapurda o'quvchilar 6 yoshdan maktabga qabul qilinadi. Boshlang'ich maktabda o'quvchilar matematika, ingliz tili, etika, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlardan asosiy bilimlarni oladi. 6-sinf oxirida ular o'rta maktabda o'qishni davom ettirishga munosib ekanini isbotlash uchun PSLE yakuniy imtihonini topshiradi. Ma'lumot o'rnida aytish kerak, PSLE milliy imtihon hisoblanadi. Sinovlar ingliz tili, ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini tekshirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim 4 yil davom etadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar texnika sohasini, buxgalteriya hisobi, shuningdek, davlat tili va xorijiy tillarni o'rganishga ixtisoslashtirilgan yo'nalishlardan birini tanlashi mumkin. Bu bosqichdan so'ng umumta'lim maktablari bitiruvchilari uch yillik bilim yurti (texnikum)ga yoki ikki yillik texnika institutlariga o'qishga qabul qilinadi. Talabalar ushbu o'quv dargohlarida quyidagi sohalar bo'yicha mutaxassisliklarga ega bo'ladi: muhandislik, aloqa, raqamli texnologiyalar, biotexnologiya va buxgalteriya hisobi. O'qishni tugatgan bitiruvchilarga ishga joylashish imkonini beruvchi diplom topshiriladi. Shuningdek, bu bosqichdan so'ng bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarida ham o'qishi mumkin. Singapur ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim rol o'ynaydi. Bu talabalarning innovatsion g'oyalar yaratish malakasiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Singapur maktablarini kompyuter bilan jihozlash darajasi havas qilgulik, aniqrog'i, o'rtacha olganda, har 5 nafar o'quvchiga bir kompyuter to'g'ri keladi. Shu bilan birga, maktablarning 95 foizi internet tarmog'iga ulangan. Bu o'qituvchilarning o'quvchilarga masofaviy ta'lim berishi uchun ayni muddao. Singapurda boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lib, ota-onalar muassasaga pul to'laydi. Ta'lim xarajati oyiga 9,4 AQSH dollari va yiliga bir marta to'lanadigan 79,4 AQSH dollarini tashkil qiladi. O'rta ta'lim uchun ota-onalar har oyda 14,4 dollar va har o'quv yili uchun bir marta 115,5 dollar to'laydi. Universitetgacha bo'lgan davr ta'limi uchun xarajat oyiga 19,5 dollarni va yiliga bir marta to'lanadigan 158,8 dollarni tashkil etadi. Singapurda davlat ajratadigan barcha mablag'lar, shuningdek, o'quv to'lovlari maktab fondiga tushadi. Klaster rahbarlari esa mablag'lar nimaga sarf etilgani haqida muntazam ommaviy axborot vositalari orqali hisob beradi.

Maktabda o‘quvchining ota-onasi bilan o‘qituvchilar o‘rtasida faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. «Ota-ona va maktab hamkorligi» deb nomlangan maxsus dastur doirasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: a) o‘quvchilar uchun qulay sharoit yaratishda ota-onalar yordami; b) maktab va ota-onalar o‘rtasida ma‘lumot almashish; d) turli tadbirlarni hamkorlikda tashkil etish, masalan, maktab nashrlariga obuna, ota-onalar ishtirokidagi konferensiyalar; e) muntazam ravishda ota-onalarga o‘quvchilarning o‘zlashtirishi to‘g‘risidagi axborot va hisobotni taqdim etish orqali o‘quvchini to‘la nazorat qilish; f) maktab ishlarini yaxshilash maqsadida qarorlar qabul qilish jaryonida ota-onalar fikrini inobatga olish. Singapur ta‘lim tizimining o‘ziga xosligi — o‘quvchining xohishiga qarab (yoki ota-onasining maslahatiga ko‘ra) o‘qituvchi tanlanadi. Mamlakatda o‘qituvchilar malakasini oshirish sohasida Milliy ta‘lim instituti (MTI) faoliyat yuritmoqda. Ushbu institutda o‘qituvchilarni uch yo‘nalish bo‘yicha qayta tayyorlash kurslari mavjud: 1) professional o‘qituvchilik; 2) ta‘lim vazirligida faoliyat yurituvchi mutaxassis; 3) maktab ma‘muriyati boshlig‘i. Bundan tashqari, institut dunyodagi eng yaxshi pedagogik amaliyotlarni tahlil qilish bo‘yicha faol tadqiqot ishlarini olib boradi. Ta‘kidlash joizki, ushbu institut mamlakatdagi malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha yagona institutdir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG‘LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.
4. Nazirov, B., & Bozorov, K. (2023). ACHIEVEMENTS OF UZBEK FOOTBALL IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: ANALYSIS AND RESULTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(3), 443-450.

5. Nazirov, B., & Qalandarova, M. (2023). XUNNLAR TARIXI: TAHLIL VA NATIJALAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(2), 197-202.
6. Nazirov, B. (2018). Хитойнинг ўзаро алоқалар тарихига бир назар: илк ўрта асрлар мисолида. “Ноширлик ёғдуси”

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI IJODIY-
METODIK KOMPETENLIKKA TAYYORLIK DARAJASINI
BELGILOVCHI ASOSIY MEZONLAR**

Uralova Muxabbat Sanjar qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tel: 91 906 14 77 e-mail: uralovamuxabbat50@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilovchi asosiy mezonlar haqida so‘z yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ko‘rsatuvchi sifatlarni shakllantirish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy faoliyat, pedagogika, ijodiy faoliyat, integrativ yondashuv, tamoyil, ijtimoiylashuv, integratsiya.

Аннотация. В статье говорится об основных критериях, определяющих уровень готовности будущих учителей начальной школы к творчески-методической деятельности. Указаны пути формирования качеств, свидетельствующих о готовности учителя начальных классов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная деятельность, педагогика, творческая деятельность, интегративный подход, принцип, социализация, интеграция.

Abstract. The article talks about the main criteria that determine the level of readiness of future elementary school teachers for creative-methodical activities. Ways of forming the qualities that show the readiness of the primary school teacher for professional activity are mentioned.

Key words: competence, professional activity, pedagogy, creative activity, integrative approach, principle, socialization, integration.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ijodiy-metodik faoliyatga tayyorligi boshlang‘ich ta‘lim tizimiga davlat va jamoatchilik tomonidan qo‘yilayotgan zamonaviy talablar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob sifatida qaralmog‘i lozim. Mazkur masalaga oid mulohazalarni bildirishdan avval, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilovchi mezonlarga to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Savol an‘anaviy tarzda qo‘yiladi: ya‘ni biz qanday shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini ijojiy-metodik jihatdan tayyorlangan deb ayta olamiz?

Birinchi galda, o'qituvchi bu sohadagi pedagogik jarayonlarning metodologik negizi haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

-ta'lim tizimi va o'qitishning tamoyillari, shakl, metod, texnologiyalari hamda ilmiy bilishning vositalarini chuqur tahlil eta olishi;

-pedagogik jarayonlardagi tendensiyalar, g'oyalar, mavjud voqeliklarni teran anglashi, baholay olishi va o'z faoliyatiga tatbiq qila bilishi;

-o'quv maqsadlari bilan bog'liq pedagogik va ta'limiy vazifalarni loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim bo'ladi [1].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilash uchun mezon sifatida uning bilim, malaka, ko'nikma va mahoratlari qatorida metodik faoliyat funksiyalarini amalga oshirish samaradorligi hamda mazkur faoliyatning komponentlarini o'zida to'liq, yuksak darajada shakllantirganligi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy-metodik faoliyatining komponentlari bir-biriga uzviy bog'liq, bir-biriga ta'sir etuvchanlik, o'zaro muvofiq tarzda rivojlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, aytish mumkinki, mazkur komponentlarning hatto bittasi mukammal shakllanmagan taqdirda ham biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mazkur faoliyatga tayyor deb ayta olmaymiz. Demak, yuqorida tilga olingan mutaxassislar va tadqiqotchilarning xulosalariga tayanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini ijodiy-metodik faoliyatga zarur darajada tayyorlanganligi uning:

-o'zida metodistik xususiyatlarini, binobarin, metodik faoliyatga xos barcha xususiyatlarni namoyon qilishida;

-ijodiy-kreativlikning barcha komponentlarini shakllantirib, ijodkorlik va kreativlik potensialiga ega ekanlik alomatlarini namoyon qilganligida;

-metodik faoliyatga ijodiy yondashuvida;

-o'qitadigan fanining tarixi, metodologiyasi, qadriyatlar va sohaga oid ilm-fanning zamonaviy holati bo'yicha yuksak darajada bilimga ega ekanligida;

-ta'lim oluvchilarga o'z fani sohasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni mufassal, mazmunli yetkazishning samarali usul, metod, vosita va shakllarini tanlay olganligida;

-o'rganilayotgan predmet mazmuniga daxldor muayyan madaniy-ma'rifiy fenomenni ijtimoiy voqeliklar bilan uyg'unlashtirgan holda o'zlashtiriladigan mavzu mundarijasiga "qorishtirib" yubora olish qobiliyatida;

-integratsiyaning turli darajalarini joriy etish orqali umumta'lim fanlarini, o'qitish metodikalari, metod va shakllari o'rtasida uyg'unlik va muvofiqlik topa olishida;

-o'z-o'zini rivojlantirishning istiqbolli strategiyasiga ega bo'lgani holda, ta'lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirishga qaratilgan usullarni ijod qila olishida va boshqa metodik va ijodiy-kreativ sifatlarida ko'rinadi [2].

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlashda quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo‘ladi:

-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida integratsiyani turli (fanlararo, bo‘limlararo, mavzulararo, tushunchalararo, shuningdek, o‘qitish metodikalari, metodlari) darajalarda amalga oshirish mahoratini shakllantirish. Mazkur jarayoni OTMdagi tahsilning birinchi kursidan boshlab, har bir fan doirasida amalga oshiriladi;

-umumta‘lim fanlari bilan pedagogik fanlar integratsiyasini, ayniqsa, ustuvor hisoblash (masalan, “Matematika” fanini o‘qitish “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” fani bilan integratsiya qilinadi);

-o‘qituvchi metodik faoliyatiga xos bo‘lgan asosiy komponentlarni uzviylik, izchillik va uzluksizlik tamoyillari asosida davomli rivojlantirib borish;

-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy potensialini yuzaga chiqarish va davomli tarbiyalash bo‘yicha ishlarni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, individual yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshirish;

-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy faoliyatni tashkil etishga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish asnosida ularda ijodiy faoliyat komponentlarining shakllanib hamda davomli rivojlanib borish uchun ijodiy-kreativ muhit yaratish;

-boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ijodiy-metodik faoliyatning xossalari va barcha komponentlari shakllanganligini doimiy ravishda, rejali monitoring qilib borish.

Bizningcha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlashga oid sanab o‘tilgan vazifalar mazkur jarayonning texnologiyasini ishlab chiqishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”.
2. Ilin YE.P. Differensialnaya psixologiya professionalnoy deyatel-nosti / YE.P. Ilin. – M., 2013. S.10
3. Kodjaspirova G.M. Pedagogicheskaya antropologiya / M,2013, s.38
4. Zimnyaya I. A. Klyuchevye kompetentnosti kak rezultativno-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. M.: Issledovatel’skiy sent problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004.
5. Baykova L.A., Grebenkina L.K. Pedagogicheskoye masterstvo uchitelya i pedagogicheskoye texnologii: Uch. Pos. Dlya stud. Visshix uch. Zav.-M.:Ped. Obshestvo Rossii,2000g.-256s.
6. Kodjaspirova G. M., Kodjaspirov A. Y. Slovar po pedagogike. – R n/D: MarT, 2005. – 448 s.

7. Maksimova V.N. Integratsionniye protsessi v pedagogicheskom obrazovanii, *Prosvesheniye* 1988, S.192
8. Sergeev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatel'nosti. – Sankt Peterburg: Piter, 2004. – 316 s.
9. Y.I.Dik Integratsiya uchebnix predmetov, *Sovremennaya pedagogika*, 1987 №9.
10. A.P.Belyayeva, Integrativno-modul'naya pedagogicheskaya sistema professional'nogo obrazovaniya / A.P.Belyayeva – SPb, 1997
11. I.A.Larionova, Integrativniye tendentsii v professional'noy podgotovki spetsialistov sotsial'noy sfery, avtoreferat dissertatsii doktora ped. Nauk M: 2009
- 12 . Abduraimovna, D. S. (2023). TYPES OF REFLEXIVE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM. *Open Access Repository*, 4(03), 31-40.
- 13 . Уралова, М. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).
- 14 . Уралова, М. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).
- 15 . Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 390–393.

ЧЕТ ТИЛИНИ ЎРГАНИШДА ОНА ТИЛИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Ахмедова Муяссар Хадиматовна

Тошкент давлат педагогика университети

Умумий психология кафедраси проф. в/б., психол.ф.д.

Садритдинова Мубина Ҳасан қизи

Хорижий тиллар факультети талабаси

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

+998946592781

Аннотация. Маълумки, таълим олувчиларнинг чет тилида фикр юритиш, эркин нутқни амалга ошира олиш хотираини ривожлантириш, интеллектуал фаолиятини шакллантириш зарурияти муҳим аҳамият касб этади. Ушбу мақолада чет тилини ўқитишнинг аҳамияти хусусида сўз боради. Шунингдек, тил ўқитишдаги муаммоларга алоҳида тўхталиб ўтилган. Айниқса, чет тилини ўзлаштиришда она тилининг ўзига хос психологик хусусиятларига эътибор берилган.

Калит сўзлар: нглиз тили, таълим, метод, методика, она тили, ахборот, таҳлил, авлод, жамият, давлат, маданият, тарих, онги, ҳиссиёт хотира.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MOTHER LANGUAGE IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Akhmedova Muyassar Khadimatovna

Tashkent State Pedagogical University

Department of General Psychology Prof. v/b., psychol. ph.d.

Sadritdinova is the daughter of Mubina Hasan

Student of the Faculty of Foreign Languages

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

Summary: It is known that the need to think in a foreign language, to develop the memory of free speech, and to form the intellectual activity of students is of great importance. This article talks about the importance of learning a foreign language. Also, the problems of language teaching are discussed separately. Special attention is paid to the psychological characteristics of the mother tongue in learning a foreign language.

Key words: English language, education, method, methodology, mother tongue, information, analysis, generation, society, state, culture, history, mind, emotion, memory.

Тил кишилик жамиятининг асрлар давомидаги бутун тарихий жараёнида маълум бир гуруҳ томонидан эмас, балки бутун жамият ва жамиятнинг аъзолари томонидан яратилган ижтимоий ҳодисадир. Шу билан бирга, тил бирор даврнинг, бирор жамият тарихий тараққиёт жараёнидаги бир қанча даврларнинг маҳсули бўлиб, жамият учун хизмат қилади. Шунинг учун ҳам тилнинг кишилик жамиятидаги аҳамияти беқиёс. Тил ёрдамида билимлар ҳосил қилинади, тўпланади ва бир авлоддан бошқа авлодга етказиб берилади. Тил – инсонлар ўртасидаги мулоқотнинг энг муҳим воситаси, фикр ва ҳиссиётларни ифодалаш, янги маълумотлар, билимларни ўзлаштиришнинг асосий механизми. Бошқалар онги ва ҳиссиётига самарали таъсир кўрсатиш учун мазкур тил соҳиби уни яхши билиши лозим.

Сўнги йилларда жамият тарққиёти ривожлангани сари чет тилларига қизиқиш ортиб бораётганлиги сезиларли кўзга ташланади. Тиларни ўрганишга интилишнинг жуда кўп сабаблари мавжуд. Шулардан бири – киши бутун дунё бўйича саёҳат давомида чет эл вакиллари, давлатлари, маданияти ва тарихини ўрганиши, ҳамда улар билан суҳбат қуриш жараёнида ўзининг илмий салоҳиятини ошириб бориш мумкин. Шунингдек турли тилларни қанча кўп ва яхши ўзлаштиради, инсоннинг характери, хулқи, муомала маданияти ўзгариб, мукаммаллашиб боради.

Фақат ўз она тилисини мукаммал эгаллаган шахсгина бошқа хорижий тилларни ўзлаштириш меъёри юқори бўлиши мумкин. Бир инсон икки тилни айнан тенг даражада билиши жуда мушкул. Дунёда бир неча тилларни биладиган инсонлар кўп. Масалан, буюқларимиздан Абу Наср Форобий жуда кўп тилни билганлиги (XIII асрда яшаган тарихчи Ибн Халликаниннг кўрсатишича, Форобий ўз она тили – туркий тилдан ташқари 70та тилни билган) ҳақида маълумотлар бор[3.345].

Жаҳон таълим тизимидаги туб ислоҳотлар болаларнинг чет тилларни мукаммал ўрганишлари, барча соҳаларда чет тилини билган ҳолда ўзларини намоён эта олишлари учун зарур шарт-шароит яратиб бериш, уларнинг хорижий тилда оғзаки ва ёзма нутқларини ривожлантириш муаммоларини илгари сурмоқда. Таълим олувчиларнинг чет тилида фикр юритиш, эркин нутқни амалга ошира олиш қобилиятларини ривожлантириш, интеллектуал фаолиятини шакллантириш, уларнинг тайёргарлигини баҳолаш масалалари билан ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, Европа Университетлари Ассоциацияси, Олий Таълим Сифатини Таъминлаш Европа Тармоғи каби ташкилотлар шуғулланмоқда. Бу масаланиннг умумий тенденцияларда ривожланиши

замонавийлик ва ёш авлодда чет тилига оид малакаларнинг шаклланишида катта аҳамият касб этиб, замонавий тарбия муаммолари билан боғлиқ ҳолда талабаларнинг ижодий қобилиятларини оширишга хизмат қилмоқда [8].

Тилларни ўрганиш мураккаб жараён ҳисобланади. Шунинг учун унда бир қанча қийинчиликларга дуч келиш мумкин, яъни психологик муаммолар ана шулар жумласидандир. Бу муаммоларни бир қанча психолог олимлар катта қизиқиш билан ўрганишган. Муаммонинг долзарблиги шундаки, кишининг билими ва шу тилда гапириш иқтидори ҳар доим ҳам бир-бирига тўғри келавермайди. Айрим инсонларга тил ўрганиш жуда ҳам осон, айримларига эса ўта қийин туюлади.

Чет тилини ўрганишдаги қийинчиликлар ҳақида сўз борганда тил тушунчасининг психологик хусусиятларига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. И.А.Зимняя тилнинг хусусиятига қуйидагини таклиф қилади: “тил – бу қийин системали таълимот бўлиб, у инсон тушунча тафаккурини вужудга келтиради, ҳамда инсоннинг муомала вазифасини бажарувчи функциясини ривожлантиради[6].

Гумболтд таъкидлашича, тил – бу миллат қалби. Унда тўлиқ “миллий” характер акс этган. Тил – ижтимоий–тарихий маҳсулот бўлиб, у ҳар хил авлодлар ўртасида мулоқот учун хизмат қилади. Тил – бу энг тирик, энг сароб ва мустаҳкам алоқа бўлиб, яшаб бўлган, яшаётган ва келажак авлодларни бир-бирига боғлаб турувчи буюк ва тарихий бир бутунлик ҳисобланади.

Чет тилининг бошқа мактаб дастуридаги ўқув предметларидан фарқи бор. Яна чет тили она тилидан кўп жиҳатлари билан ҳам фарқ қилади. Унинг фарқини Л.С.Виготский таъкидлаб ўтганидек: эгаллаш йўли йўналишида; мулоқотда киришувчалигида; вазифаларнинг ҳаммаси амалга ошишида; боланинг тилини ривожланишида (2-5 ёш). Бунда Л.С.Виготский аниқлаб олган йўли она тили учун пастдан - тепага, чет тилини ўрганиш учун эса, тепадан-пастга характерлидир, деб ҳисоблаган. Шундан кўриниб турибдики, она тили ва чет тилларини ўрганиш бир-бирига қарама қарши кечадиган жараёндир. Сабаби, она тилини инсон ёки бола ўзи билмасдан ҳам туриб ўрганиши мумкин, лекин чет тилини ўзи бошидан бошлаб, махсус, тайёрланган ҳолда ўрганади[7].

Тил коммуникацияси талабларига фикрларнинг ифода этиш воситасидек тавфсифнома бериш зарур. Бу сифатда она тили ҳам чет тили ҳам намоён бўлади. Аммо она тили биринчи навбатда табиий, натурал мавжутлилик шакли ва эмотционал ирода сферасининг белгисидир. Болада чет тилини қанча яхши ўрганса-да, унинг мулоқотга киришиш даражаси, яъни она тилида сўзлашиш хусусияти юқори туради. Яна бир асосий жиҳати шундаки, бола мактабда одатда она тил орқали сўзлашади ва чет тилида ўрганган сўзларини амалиётда қўллаши жуда кам ёки умуман қўлламайди. Шунинг учун ҳам

масалан, чет тилда ўрганган сўзларини миясида сақланиб қолади, айрим ҳолларда қўллайди. Чунки бошқа тилдан ўзлаштираётган сўзларнинг ҳеч қандай ҳиди, ранги, шакли, ҳажми, катта-кичиклиги бўлмагани учун хотирасида сақланиши қийин бўлади. Чунки маълумки хотирага сезги хусусиятлари, ҳиссий ҳолатлар кучли таъсир қилади ва одам онгида узоқ вақт сақланади.

Математика, тарих, география, биология, химия, физика фанларига қараганда тил ўқув предметлар орасида яшаш тарзи учун энг керак бўлиши билан ажралиб туради. Чунки тил орқали биз ўз фикримизни объектив ҳолда баён эта оламиз ва тил ахборот сақловчи, таҳлил қилувчи ва олиб юривчи восита ҳисобланди. Тилни ўрганиш учун ўқув фаолияти предметини ўрганиб чиқиш лозим.

Чет тилини предметсизлиги одатда бошқа фанларга нисбатан (математика, жўғрофия, тарих, биология, химия, физика ва бошқалар) реал борлиқнинг билимини бермайди. Чет тили тилларнинг функцияси, қоидалари, талаблари кабиларга асосланади.

Коммуникатив фаолиятга бирёқлама “қўшилиш” қандайдир (инглиз) тилини ўзлаштиришга ёрдам беради. Мактабда бола ўрганаётган тилида мулоқада бўлади, лекин муҳитдан ташқари эмас. Бу нарса боланинг хотирасида сўз бўлиб сақланиб қолади. Инглиз тилидаги “сўз”лар ҳид, ранг, шакл, катта кичиклигидан маҳрум. Шу нарса чет тилини ўзлаштиришда идрокнинг роли сустлиги сабабли сўзларни хотирасида яхши сақлаб қолмаслигига сабаб бўлиши мумкин. Инсон она тилини ўзлаштираётганда ўзи билмаган ҳолда ўзлаштиради. Бу табиий бўлиб, ўзлаштираётганда борлиқни билиш учун қурол сифатида фойдаланади. Бу жараёнда табиий унинг одамий, специфик (коммуникатив, билим орттиришлик ва бошқа ижтимоий) эҳтиёжлари қониқтирилади.

Шундай қилиб чет тилларини ўрганиш учун тил хусусиятининг ижтимоий психологик асосларининг тушуниш ҳамда уларни босқичма-босқич ўзлаштириб бориш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун шахс тил хусусиятининг асосий психологик сифатларини тўғри таҳлил қила олиши ва ундан оқилона фойдалана олиши лозим.

Адабиётлар рўйхати:

1. Артемов В.А. Психология обучения иностранному языку, М.; Просвещение, 1999.
2. Ахмедова М.Х. Ижтимоий жараёнларнинг тил ҳодисаларига таъсири // Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази. 2023/2/11. Б.49-53.
3. Ахмедова М.Х. Юксак маънавият – тил ва ахлоқ кўзгуси // Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази. 2022. Б.344-347.

4. Ахмедова М.Х., Арипова М.Л. Таълим жараёнида ўйин усулларини қўллашнинг педагогик-психологик моҳияти // Замонавий таълим 2015. №8. Б. 33-37.
5. Елухина Н.В. Преодоление основных трудностей понимания иноязычной речи на слух как условие формирования способности устно общаться, //ИЯШ,1996, №4.
6. Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе. М.; Просвещение,1991.
7. Леонтьев А.А. Речевые ошибки как проблема психологии; в сб. Материалы 3 Всесоюзного съезда общества психологов СССР, т.1, Общая психология и психофизиология., М.; 1998.
8. Ahmedova M., Rahimjonova X. Bolalarga chet tilini o'rgatishning psixologik jihatlari // International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century 2022/8. 151-154.

YOZUV DARSLARIDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH

Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Pedagogika” kafedrasi dotsenti,

Eshmirzayeva Muslima Faxriddin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

magistranti.

Annotasiya: *Ushbu maqolada yozuv darslarida foydalanish mumkin bo'lgan samarali usullar va ulardan foydalanish mumkin bo'lgan jarayonlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, fonetika, nutq tovushlari, usullar.*

Ma'lumki, “Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga kirib kelgan. U grekcha so'z bo'lib, “tehne” –san'at, mahorat, “logos” fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir¹. Bu asar syujeti yuzasidan o'quvchilarga savol tuzdirishda, qahramonlarga tasvir berishda o'z ifodasini topagi.² Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Hozirgi ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy vositalardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.³ Quyida biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilishi zarur bo'lgan asosiy yozuv usullari bor.

Chiziqli usul

Qaysiqir harfni yozilishini o'rganish uchun o'quvchi bu harf qanday belgilarga ega ekanligini, harfdagi alohida elementlarning joylashish o'rnini, uning kattaligini va

¹ Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – B.3.

² Qosimova K va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. ..”Noshir”.2009.

³ Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2006

hokazolarni o'rganib olishi kerak. O'quvchiga harfning yozilishini to'g'ri o'rgatish uchun uning qatoridagi o'rni to'g'ri joylashtirish va qatorini qog'oz varag'ida joylashish o'rnini bilish uchun qog'ozda gorizantal, yotiq chiziqlar chiziladi, shunda daftarning betida o'ziga xos setka paydo bo'ladi. O'quvchilar unga har bir alohida harfni yozib boradilar.

Genetik usul

Genetik usul to'g'ri yozishga o'rgatishning asosiy uslubi hisoblanadi. Boshlang'ich maktabning dasturida ko'rsatilishicha alifbeni o'rganish vaqtida bolalar alifbeda harflar qanday joylashgan bo'lsa, shu tartibda yozilishida oson yoki qiyinligidan qat'iy nazar ketma-ket o'rganiladi. Genetik usul bilan yozuvga o'rgatish hozirgi kunda alifbeni o'rganib bo'lgandan so'ng to'g'ri yozuvga o'rgatish hozirgi kunda butun borishida amalgam oshiriladi. Bu uslubning afzalligi shundan iboratki, o'quvchi yozuvdagi harfni alifbedagi tartibda emas, balki uning yozilishidagi murakkab tomonlarigava yozuvdagi harf avvalgi yozuv mashqlariga mos kelishi kerak. Oldiniga o'quvchilar oddiyroq va yengil harflarni yoza boshlaydilar, keyinchalik esa birmuncha murakkabroq va oxirida qiyin mashqlarni yozadilar.

Bunday ketma-ketlikning afzallik tomoni shundaki, o'quvchi 1-2ta elementni o'zlashtirib olib shakli jihatidan soddaroq bo'lgan harfga o'tadi. So'ng qandaydir shriftni yoki alohida bir elementni qo'shish orqali yangi harflarni o'rganishga o'tiladi.

Bu quydagi tartibda amalgam oshiriladi:

1. O'qituvchi hozir yozuv bilan shug'ullanishlarini aytib o'tadi. O'quvchilar mashg'ulotga kerak bo'ladigan narsalarni tayyorlab qo'yadilar.
2. Undan keyin o'qituvchi sinf doskasidagi harf yoki so'zning yozilish tartibini tushuntirib beradi, o'quvchilar esa o'qituvchining yozish jarayonidagi qo'l harakatlarini takrorlab borishlari lozim.
3. O'qituvchi tomonidan so'z o'quvchilar bilan o'qib boriladi va havoda yozish mashqlari bir necha bor takrorlanadi. Bunday tayyorgarlik mashqlaridan so'ng o'quvchilar daftarga yozishga o'tadilar. Yozish malakasini egallab borishga o'rgatish maqsadida avvaliga sodda elementlardan tashkil etilgan so'zlarni keyin esa murakkabroq so'zlarni yozishga o'tiladi.

Nusxaga qarab ko'chirish usuli


Bu usul ham yuqoridagi usullardan kam bo'lmagan samaradorlikka ega. Bolalarning ko'chirish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu usul qadimiy usul bo'lib,

hozirgi kunda ham qimmatini yo'qotnagan holda qo'llanilib kelinmoqda. Bu usulda o'quvchilar harflarni "Husnixat" kitobi yoki "Yozuv daftari"-dagi namunalarga qarab ko'chirib yozadilar. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish mexanik jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. "Husnixat" daftarida berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi, ish unumini oshiradi. Yosh bolani yozuvga o'rgatishda doimooddiydan murakkabga qarab boramiz. 1- sinf yozuv daftarida harflardan oldin belgilarning nusxasi berilgan. Ularning ustidan yozadi.

Tasavvur orqali yozish usuli

Bolalarda tasavvur orqali havoda harflar shaklini yozdirish qo'llanadi. O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf yoki uning bog'lanishlarini o'quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib ko'rsatadi va bu orqali o'quvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi. So'ng o'quvchi daftarga yozishga kirishadi. Bunday mashq usuli o'quvchining qiziqishini oshiradi. Bu usulning salbiy jihati shundayki, o'qituvchi bu uslubdan foydalanganda barcha o'quvchilarning qo'l harakatini to'g'ri yoki noto'g'riligini bir paytda tekshira olmaydi. Bunda bir necha o'quvchining qo'l harakatini kuzatib tegishli ko'rsatma beriladi. Tasavvur orqali yozdirish bolalar estetikasini shakllantiradi. Ijobiy natijalarni beradi. Boshqa uslublardan kam bo'lmagan natijani beradi.

Quyida ko'rsatib o'tilgan usullar asosida o'quvchilarda yozuvga o'rgatish jarayonlari to'g'ri tashkil etiladi va yozma savodxonlik rivojlantiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. .:”Noshir”.2009.
2. Aldjanova I.R. Bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011.
3. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o`qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta`limi jurnali, 2006

O'rta Osiyoning IX – XIV asrning o'rtalari tarixiga oid yozma manbalar

Jumayev Abdusalom

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Arab xalifaligi hukmronligi davrida musulmon Sharqida arab tili keng tarqaldi. Bu ko'p jihatdan ushbu mamlakatlarda yangi din – islomning qaror topishi bilan bog'liq edi. Deyarli butun diniy adabiyot shu tilda yaratilgan. Boshqaruv idoralarida ham arab tilidan foydalanilar edi. Asta-sekinlik bilan arab tili adabiyot va san'at sohasida ham qo'llanila boshlandi. Bu tilda faqat arab olimlari va adiblar emas, balki xalifalik tomonidan zabt etilgan mamlakatlar, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan ma'rifatli kishilar ham ijod qildilar.

Kalit so'zlar: "Kitob al-buldon", "Risola", "Kitob axbor al-buldon", "Kitob masolik ul-mamolik"

Xuroson va Movarounnahrning IX-X asrlar tarixini yoritishda arab tilidagi tarixiy-jug'rofiy adabiyotlar muhim o'rin tutadi. Geograf-olimlar O'rta Osiyoning tabiiy sharoitlari, xo'jaligi, shahar va viloyatlari haqida ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Xususan, bu yurtga turli davrlarda tashrif buyurib, haqiqiy ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rgan sayyohlarning yozib qoldirgan ma'lumotlari maroqlidir. Ular keltirgan axborotlarning to'g'rilik darajasi yuqoridir. IX asr arab geograf olimi al-Ya'qubiy (Abul Abbos Ahmad ibn Ya'qub) Bag'dodda tug'ilib, uzoq yillar davomida Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'ribda yashagan.⁴ Al-Ya'qubiy ushbu viloyatlar ma'muriyatida

⁴ Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Т.: Ўзбекистон, 1992.

mas'ul lavozimlarda ishlagan, deb taxmin qilish mumkin (Uning bobosi va otasi davlat amaldorlari bo'lib, turli viloyatlarda xalifa uchun ma'lumotlar to'plashgan, degan fikrlar bor). Shubhasiz, uzoq muddat davomida turli mamlakatlarda yashash unga bo'lajak kitoblari uchun materiallar to'plash imkoniyatini bergan. Jumladan, "Kitob al-buldon"⁵ ("Mamlakatlar to'g'risidagi kitob") nomli asarida al-Ya'qubiy ko'p mamlakatlar qatorida Eron, Movarounnahr, Xorazm va Seiston haqida, ularning jug'rofiy joylanishi, yirik shaharlari va qal'alari, aholisi, uning mashg'ulotlari va urf-odatlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. "Kitob al-buldon" asarining ikkita nusxasi Germaniyada saqlanmoqda. Asarning arabcha matni 1892-yilda Leydenda golland sharqshunos-olimi M.Ya.de Guye tomonidan nashr etilgan. O'rta Osiyo to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar arab sayyohi Ibn Fadlan (X a.) asarlarida uchraydi. Jumladan, u o'zining "Risola" nomli asarida Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida yashagan xalqlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyoning tarixiy jug'rofiyasi, Balx, Samarqand va boshqa shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar Ibn al-Faqihning "Kitob axbor albuldon" ("Mamlakatlar to'g'risidagi xabarlar kitobi") (X a.) asarida uchraydi. Muallifning haqiqiy ismi – Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad alHamadoniydur.⁶ Ibn al-Fakihning bu asari to'liq holda saqlanmagan. Bizgacha asarning 1022-yilda Ali ibn Ja'far ash-Shayzoriy tomonidan tahrir etilib, qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan. Ushbu nusxa de Guye tomonidan Leydenda 1885-yilda nashr qilingan. 1923-yilda esa Mashhaddagi Imom Rizo masjidi kutubxonasida "Kitob axbor

⁵ Абдулкарим Саъъоний. Ал-ансоб. Насабнома (VII-XII асрда яшаган бухоролик олимлар ҳақида маълумот). – Бухоро: “Бухоро” нашриётиб 1999.

⁶ . Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси // Мерос. – Т.: Камалак, 1991. Б. 88-174.

al-buldon"qo'lyozmasining ikkinchi qismi topildi. Tarixiy manba sifatida eronlik olim Abulqosim Ubaydulloh ibn Xurdodbeh (820-913) ning asarlari diqqatga sazovordir. U nufuzli amaldor oilasida tug'ilgan. Uning otasi Tabariston viloyatining hokimi bo'lgan. Abulqosim yoshligida yaxshi ma'lumot oldi, u jug'rofiya, tarix, meteorologiya va boshqa fanlarni yaxshi o'rgandi. Xalifa Mu'tamid (870-892) davrida ibn Xurdodbeh hukmdorga yaqin kishi (nadim) edi. Keyinchalik u muhim davlat lavozimlariga tayinlandi, jumladan, Jibal viloyatida (Eronning shimoli-sharqiy qismi) pochta va razvedka boshlig'i (sohib barid va l-xabar) lavozimida xizmat qildi. Ibn Xurdodbeh turli fanlarga oid 10 ga yaqin asar yozdi. Ular orasida eng muhimi "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") hisoblanadi. Unda muallif Arab xalifaligi tarkibiga kirgan mamlakatlar, shaharlar, ular o'rtasidagi masofa, aholidan undirilgan soliqlar va o'lponlar to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Ibn Xurdodbehning asarida O'rta Osiyoning shaharlari – Samarqand, Kushoniya, Ushrushona, Shahrison, Shosh va Isfijob (Sayram), shuningdek, Movarounnahrda pul muomalasi, bu yerda istiqomat qilgan turkiyzabon qabilalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bizgacha asarning faqat qisqartirilgan varianti yetib kelgan. Uni 1889-yilda de Guye nashr ettirgan. Asarning ruscha tarjimai N.Valixanova tomonidan Bokuda 1986-yilda nashr etildi.⁷ Ibn Xurdodbehga zamondosh bo'lgan yana bir eronlik geograf olim va sayyoh Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy (850-934) edi. U ko'p sayohat qilgan va Movarounnahr, Suriya, Misr, Mag'rib singari mamlakatlarda bo'lgan. O'z sayohatlari chog'ida al-Istaxriy ushbu mamlakatlarning jug'rofiyasiga oid ko'p materiallar to'pladi va keyinchalik "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") nomli asarini yozdi.

⁷ Абу Мансур ас-Саолибий. Ажойиб маълумотлар / Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. – Т.: А.Қодирий ном. нашр., 1995.

U asariga o‘zining zamondoshi Abu Zayd Ahmad al-Balxiyning "Suvar al-aqolim" ("Qit'alar tavsifi") kitobini asos qilib oldi hamda unga ancha yangi ma'lumotlar qo'shdi. Boshqa musulmon mamlakatlari qatorida, al-Istaxriy O'rta Osiyo, uning sarhadlari, iqlimi, ma'muriy bo'linishi, savdo-sotiqning ahvoli, aholisi va uning mashg'ulotlari, mashhur kishilari to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Al-Istaxriy asarining arabcha matni uch marta (1870, 1927, 1967) Leyden shahrida nashr etilgan. Asar XVI asrdayoq Abulmahosin Muhammad al-Naxichevoni tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Asarning qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkent shaharlarida saqlanmoqda. Sharq mamlakatlari tarixi, jumladan O'zbekiston tarixini tadqiq etishda arab olimi va sayyohi Abulhasan Ali ibn al-Husayn al-Mas'udiy (956yilda Qohirda vafot etgan) asarlari katta ahamiyatga ega. Mas'udiy Bag'dodda zodagon oilada tug'ilgan. 915-945-yillar oralig'ida amalga oshirgan sayohatlari chog'ida Eron, Shom, O'rta Osiyo, Ummon, Shimoliy Afrika, Zanzibar, Hindiston, Seylon, Xitoy va boshqa mamlakatlarda bo'lgan. Mas'udiy adabiyot, falsafa, fiqh, jug'rofiya va tarix fanlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega edi.⁸ U fanning turli sohalariga doir 20 dan ziyod asar yozgan. Afsuski, ularning ko'pi bizgacha yetib kelmadi. Uning saqlanib qolgan asarlaridan biri – "Muruj az-zahab" ("Oltin maysazor") tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Asar 947-yilda yozilib, 956-yilda qayta ishlangan. "Muruj az-zahab" ko'p xalqlar, shu jumladan turkey qavmlar tarixi, ijtimoiy tuzumi va udumlari to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar beruvchi qomusiy asardir. Uning matni va fransuz tiliga qilingan tarjimasini 1861-1877-yi llarda Parijda nashr etilgan.

Xulosa: Shunday qilib, O'rta Osiyoda IX – XIV asrning birinchi yarmida kechgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar arab va fors-tojik tilida bitilgan

⁸ 5. Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений // Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т. 1. Перевод и прим. М.А.Салье. – Т., 1957.

turli yozma manbalarda o'z aksini topgan. Ular asosan sayyohlarning safarnomalari, tarixiy va tarixiy-jug'rofiy asarlar, adabiy asarlar, tazkiralalar, manoqiblar, shuningdek, yuridik hujjatlardan iborat. Ushbu manbalardan mushtarak tarzda foydalanish Xuroson, Movarounnahr va Xorazmning o'rta asrlar tarixining turli qirralarini ochib berish imkoniyatini beradi

Manbalar, adabiyotlar va elektron resurslar

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Абдулкарим Саъоний. Ал-ансоб. Насабнома (VII-XII асрда яшаган бухоролик олимлар ҳақида маълумот). – Бухоро: “Бухоро” нашриётиб 1999.
Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmuallikka o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a‘zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a‘zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi. Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan.

Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas. Shayxzoda ko‘p qirrali iste’dod sohibi bo‘lgan. U she’rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi. Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtda asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergan deyishgan edi.

Bundan tashqari, u "Shirin bilan Shakar" dostonining bir xususiyatini alohida uqtirib o‘tadi: "... qo‘limizdagi bu doston ma’lum bir afsonaviy asardir. Haqiqatan ham bu dostonda tarixchietnograf uchun o‘rganishga sazovor birmuncha ma’rifiy va etnografik ma’lumotlar topish mumkin. Bu dostonni o‘qish bilan o‘quvchi ham eskiurushlarning texnikasini, urush oldidan o‘zbeklarda polvonlarning chiqib bahslashuvlarini, urushda yengilgan lashkarlarning bizning zamonamizda bo‘lganiday, qilichlarni taslim qilmasdan, balki o‘z bo‘yinlariga olganlarini, ko‘pkari-uloq chopishning kelib chiqqanligi feodallardagi jazolash usullarini /

jallodlar gunohkorlar qo‘lini oldiga bog‘lagandan haqidagi materiallarni, burungi keyingi o‘zining mutlaqo o‘lajagini bilar va yana birmuncha an‘analarni, qiziq ilmiy ham ruhiy xususiyatlarini tekshirib borishi mumkindir. Zotan, yaxshi, go‘zal, badiiy bir doston boshqacha turli bo‘lolmaydi. U qancha xayoliy, afsonaviy bo‘lmasin, mutlaqo ma‘lum tarixiy bir davrning real chiziqlarini o‘ziga singdirib olishi tabiiydir". Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi asarlari tildan-tilga, avloddan-avlodga o‘tib keladi. Natijada bu asarlar turli o‘zgarishlarga uchraydi, ma‘lum tarixiy sharoitgagina xos bo‘lgan ayrim o‘rinlari tushib qoladi, yangi voqea va qarashlar kirib keladi. Binobarin, ayrim xalq og‘zaki ijodi asarlarida, ayniqsa, doston va ertaklarda, turli tarixiy sharoitga oid voqealar, urf-odatlar, fikr va qarashlar aks etganini ko‘ramiz "Alpomish" ham shunday asralardan biridir. Ham mazmuni, ham shakli jihatidan xalqchil bo‘lgan "Alpomish" o‘zida xalqning og‘zaki poeziyasidagi she‘riy qoidalarni, shakllarni, usullarni o‘ziga xos ravishda o‘zlashtirib olganini ko‘ramiz. Shuning uchun ham adabiyot tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotchi bu ulkan badiiy meros xususida ma‘lum tasavvur va xulosalarga kelmay turib, adabiy jarayon, shakl va usullarning, obraz badiiyatining taraqqiyoti to‘g‘risida chuqur fikr mulohaza yuritishi amri maholdir.

Maqsud Shayxzoda 1956-yilda "Alpomish" dostonidagi ba‘zi bir poetik xususiyatlar haqida tadqiqot olib borar ekan, bu dostonning vazni, badiiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, mazmuni, obrazlar olami xususida keng ma‘lumot beradi. Jumladan, "Alpomish" dostonining ritmik negizi sillabik sistema ("hijo vazni yoxud barmoq vazni") ekanligi, bu vazn turkiy tillarda so‘zlovchi barcha xalqlarning og‘zaki poeziyasiga xos bir vazn bo‘lib kelganligini aytib o‘tadi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda dostonidagi uchraydigan poetik xususiyatlar: saj‘, qofiya, radif kabilarga alohida to‘xtaladi. Olim: "Dostonda qofiyaga rioya qilish va unga moyillik shu qadar zo‘rki, hatto she‘rlar o‘rtasiga kiritilgan she‘riy parchalar ham qofiyalangan", - deb misol tariqasida shu parchani keltiradi: "Barchinoyini otdan tushirib yotgan, besh yuz sepini ortgan, qirqin kanizlar Barchinni baxmal uyga olib ketgan, toza liboslarni bu uyga solib yetgan, hammasi choydosh-qung‘onni qaynatgan hokazo..." Bu she‘r emas, nasr (prozadir). Ammo qofiyalangan nasrdirki, buni mumtoz adabiyotda saj‘ deb ataladi. Demak, bu usul ham xalq poeziyasida chuqur ildizlarga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O‘zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so‘ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan. Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko‘p va bundan keyin ham kamaymaydi. Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo‘nalishda emas balki turli xil yo‘nalishlarda juda qiziq faoliyat ko‘rsatgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Maqsud Shayxzoda serqirra ijodkor kitobi
2. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
3. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
4. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.

G'arb mutafakkirlari qarashida boshqaruvchilik faoliyati

Jo'rayeva Lobar

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arb mutafakkirlari Zardusht, Konfutsiy, Suqrot, Platon, Aristotelning jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlar to'g'risidagi qarashlarining bugungi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati va boshqaruvchanlik faoliyati haqida ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, ma'naviy yuksalish, qadriyat, dialektika, islohot, fuqaro, baxt, hadis, axloq, ilm-fan

Annotation: This article provides a scientific analysis of the importance and management of Western hypocrites Zardusht, Confucius, Sukrot, Plato, and Aristotle's views on spiritual updates in society in the formation of civil society today.

Keywords: development, spiritual advancement, value, dialectics, reform, citizen, happiness, event, morality, science

Аннотация: В статье представлен научный анализ значения и управленческих взглядов западных лицемеров Зардушта, Конфуция, Сукрота, Платона и Аристотеля на духовные обновления в обществе в формировании современного гражданского общества.

Ключевые слова: развитие, духовное продвижение, ценность, диалектика, реформа, гражданин, счастье, событие, нравственность, наука

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlar to'g'risidagi turli g'oya va qarashlarni chuqur va atroflicha tahlil etmay, ulardan tegishlicha saboqlar olmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug' maqsadni amalga oshira olmaymiz. Shu bois insoniyat tarixida jamiyatning ma'naviy yuksalishi haqidagi turli davrdagi buyuk allomalar, davlat va jamoat arboblarning ilmiy-falsafiy qarashlaridan qancha ko'p ma'lumotlarni tadqiq etsak, jahonning rivojlangan davlatlarining ijobiy jihatlarini o'rgansak, mamlakatimizni jahon tendensiyalariga mos ravishda rivojlantirishimiz, fuqarolarni davlat va jamiyatimizning milliy yuksalishiga faol ishtirokini ta'minlagan bo'lamiz. Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, ma'naviy yangilanishlar jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta'sir doirasi sezilarli ekanligini Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan qoldirilgan ilmiy merosi guvohlik beradi. Shuning uchun buyuk faylasuf, mutafakkir olimlar va adolatli davlat boshliqlari millatni mahdudlik holatidan

chiqarib, taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, ma'naviy yangilanishlar omiliga e'tibor berganlar, jamiyat a'zolarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga daxldorlik mas'uliyati, insonni e'zozlash, adolat uchun kurash, halol mehnat, jamoaviylik, oilaga sadoqat, do'stlarni hurmat qilish ruhida kamol toptirishga, ularda milliy g'urur va iftixor, burch va mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytirishga harakat qilganlar. Shundan kelib chiqib, ma'naviy yangilanishlarning jamiyat rivojida tutgan o'rnini qadimgi Sharq va G'arb faylasuf olimlarining ijodlaridan namunalar asosida ilmiy tahlil qilib chiqsak. Bejizga Sharq qadimdan ma'naviyat va sivilizatsiya o'chog'i sifatida ta'riflanmagan. Qadimgi Sharq faylasuflari ma'naviy yuksalish, shaxsning o'zligini anglashi va kamol topishiga qaratilgan konsepsiyalarda, avvalo, zardushtiylik, buddizm, konfutsiychilik falsafasida juda ko'plab noyob dialektik g'oyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, bu borada Zardushtning falsifiy-ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovor. Zardushtiylik jamiyatni tinch va osoyishtalik, barqaror holatda bo'lishi, insonlarning bir-birlariga maslakdosh, ko'makdosh bo'lishi kabi g'oyalarni ilgari surgan. Zardusht falsafasidagi "O'zgalarga yorug'lik istagan kimsalarga yorug'lik nasib etadi. Haqiqat nurlari ostida, Ezgu Niyatdan yaralgan ma'rifatingdan bizlarga hadya qil, toki tirikligimizning har lahza, har soat, har bir kunida shodmonlikdan bahramand bo'laylik" yoxud "Olam obodligi uchun g'ayrat ko'rsatmoq lozim, uni yaxshilik bilan asramoq va yorug'lik sari eltmoq kerak"⁵⁶ singari fikrlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U o'z davrida xalqni ezgulik va adolat g'oyalariga da'vat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda. Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida Konfutsiyning (551–479) qarashlari ham alohida o'rin tutadi. U qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojiga katta hissa qo'shgan. Mutafakkirning "Aforizmlar" asari teran falsafiy g'oyalari bilan mashhurdir. Konfutsiyning falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rin tutadi. Qadimgi ajdodlarning urf-odatlarini, marosimlari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o'tganlarning shuhrati ularning avlodlarini yuksaltiradi, deb jamiyatning haqiqiy negizi, poydevorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odatlar, marosimlar, an'analarni tiklash va ularga amal qilish zarurligini uqdiradi.⁵⁷Hozirgi kunda Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta'limotning maqsadga

⁵⁶ Jo'rayev N. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015,.

⁵⁷ Konfutsiy. Hikmatlar. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010,

muvofigligini mamlakatimizda qadimgi urf-odat, an'ana, milliy marosim va bayramlarimizning, ajdodlarimiz tarixiy xotiralarining tiklanishi borasidagi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarimizda ko'rishimiz mumkin. Qadimgi dunyoda falsafiy fikr taraqqiy etgan mamlakatlardan biri Yunoniston edi. Qadimgi Yunonistonda falsafa ijtimoiy hayotning in'ikosi sifatida tabiat to'g'risidagi bilimlar bilan bog'lanib bir butun dunyoqarashni o'zida mujassamlantirgan edi. Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Platon va Aristotel asos solgan falsafiy oqimlar idealistik dunyoqarashni rivojlanishiga xizmat qiladi. Suqrot (eramizdan oldingi 469–399-yillar) – qadimgi Yunon faylasufi. Afsuski ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo' - nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.⁵⁸ Suqrotning fikricha, falsafaning markazi-da axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoriga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganligi bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pandnasihatlariga amal qilishgan. Jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma, faylasuf, san'atshunos olim Platondir. Uning fikricha, "Kimki, davlatlarga jamiyat va umumxalq muomalasida bo'ladigan axloqning hayotiy qoidalari to'g'rsida qonunlar berishni o'ylab, ammo xususiy hayotga e'tibor berishni zarur deb hisoblamagan bo'lsa, bu bilan hammaga hamda har kimga o'zi xohlaganicha kun o'tkazishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lsa, fuqarolar, o'zlarining xususiy hayotlari qonunlashtirilmaganiga qaramay, jamiyat va umumxalq hayotida qonunlarga mos yashaydilar, deb hisoblasa, u noto'g'ri mulohaza yuritgan bo'ladi".⁵⁹ Platonning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Platon aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. O'zining qomusiy merosi bilan jahonni lol qoldirgan, ilmiy-falsafiy g'oyalari bilan sharqda "Birinchi muallim" sifatida e'tirof etilgan buyuk faylasuf Aristoteldir. Aristotel fikricha, haqiqiy baxtni anglash ma'naviy yuksak, to'g'ri fikrlovchi kishiga taalluqlidir. Har bir insonning go'zallik to'g'risida tasavvuri bor. Bunda ma'naviy insonning buyuk yutug'i ko'rinib turibdi. Faylasuf har bir alohida holatda haqiqatni topadi. Bu uning mezoni va qonuni hisoblanadi. Ma'naviy inson aql bilan fazilatlar birligiga amal qiladigan kishidir. Fazilat jonning qo'lga kiritgan sifatidir. Jonning komil qismi qanchalik ko'p bo'lsa, fazilatlar ham shunchalik yuqori bo'ladi. 5 Umuman, qadimgi Sharq va G'arb falsafasining ijtimoiy muammolari orasida axloq mavzusi yetakchilik qiladi. O'sha davrda yaratilgan hikmatli so'z, iboralar bugungi

⁵⁸ Nazarov Q. Falsafa. T., "DITAF", 2000,

⁵⁹ Aflotun. Qonunlar. T., "Yangi asr avlodi", 2002, 197-bet. 5 Nazarov Q. G'arb falsafasi. T., "Sharq", 2004,

kunda ham insonni mulohaza yuritishga majbur qiladi. Markaziy Osiyoda siyosiy fikrlarning vujudga kelishi va rivojlanishida islom dini ham muhim manbalardan biri bo'ldi. IX asrda maxsus islom ilmlari shakllandi. Greklardan o'tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlardan tashqari kalom, hadis, fiqh kabi islomiy ilmlar yuzaga keldi. Islom Sharqda nafaqat din si fatida, balki yaxlit madaniyat, ma'naviyatning shakllanishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. U madaniyatning ilm-fan, san'at, axloq, siyosat kabi sohalarining rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. G'arbda insoniy kamolotga erishish aql-zakovat vositasida (pragmatizm) amalga oshirilgani haqida e'tirof etilgan edi. Aql-zakovat esa hamma narsaning tub mohiyatini anglashga, jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga, tuzilmaning barcha elementlarini muayyan tartibga solishga intiladi. Sharq olamida asta –sekin ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda tanazzul alomatlari namoyon bo'la boshlagan bir vaqtda G'arb mamlakatlarida jonlanish kuzatiladi. U yerda ijtimoiy taraqqiyotning navbatdagi bosqichida keng ko'lamda bozor munosabatlari shakllanib bormoqda. Bu xil jarayonlar ijtimoiy munosabatlarni nihoyatda keskinlashtirib yuboradi. Bu voqealar davlat tizimi faoliyatida liberalizm konsepsiyalarining ustuvor bo'lishi bilan izohlanadi. Aholining tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidan ko'proq e'tibor berila boshlandi. Ijtimoiy munosabatlar sohasida eng dolzarb muammo- mehnat munosabatlari edi. Jamiyat miqyosidagi ichki nizolar aynan shu masalaning yechimi bilan bog'langan, demakki, uning keyingi taraqqiyoti pirovard natijada mazkur nizolarning qay tarzda yechilishiga qarab amalga oshishi mumkin. XX asrda ro'y bergan iqtisodiy tanazzul jamiyatning liberalistik modelga asoslangan iqtisodiy rivojlanishi nechog'li asossiz ekanini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat jarayonlar rivojiga davlatning aralashuvini taqozo etardi. Ana shunday shart-sharoitlarda iqtisodiy jihatdan ancha ilgari ketgan G'arb mamlakatlarida, xususan, AQSh da “insoniy munosabatlar” maktabining E.Meyo, F.Retlisberg, M.Follet kabi namoyandalari tomonidan jamiyat hayotini ijtimoiylashtirish darajasini oshirish zaruriyatini ifoda etuvchi izlanishlar natijasi e'lon qilina boshlandi. Buyuk Britaniyadagi “ijtimoiy-texnik tizimlar” maktabining radikal namoyandalari ham o'z fikr-mulohazalarini ovoza etdi. Ularning fikriga ko'ra, texnologik jihatdan olib qaralganda, har qanday rivojlanish sotsiotexnik xususiyat kasb etadi. Zero, texnologik jarayonlar o'z-o'zicha amalga oshmaydi, balki insonlar tomonidan boshqariladi. Ijtimoiy sohada adolat tamoyillarini qaror toptirish muammosining yechimiga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy-texnik omillar ta'sir o'tkazadi. Shuni inobatga oladigan bo'lsak, mazkur masalalarni tartibga solish uchun davlat aralashuvining nechog'lik muhimligi ayon bo'ladi. Sharq olamida davlat tizimining (hukmdor faoliyati) o'rni va roli nechog'lik ahamiyatli ekanini anglab yetishgan bo'lsa, G'arbda xuddi shu fikrga sotsial tajribalar asosida va aql-zakovat yordamida yetib kelishdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda

iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda boshqaruvchilik sohasida amalga oshirilgan, aholini sotsial himoyalash muammolariga katta e'tibor berilganini e'tirof etish lozim. Shu o'rinda buyuk ajdodlarimiz ham aynan shu masalalar yuzasidan nihoyatda o'rinli va qimmatli maslahatlar berishganini ta'kidlamaslik mas'uliyatsizlik bo'lardi. Umumbashariy taraqqiyot tamoyillarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, sotsial adolat prinsipini tarkib toptirishga intiluvchi har qanday davlat tizimida ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi barcha tomonlarning manfaatlarini uyg'un tarzda qondirish yo'l-yo'riqlarini izlab ish tutish yaxshi samara beradi. Bunda albatta davlatning o'rni va roli alohida belgilanadi. Davlat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirib borish masalasi bilan shug'ullanmog'i lozim bo'ladi. Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot prinsiplarining rivojlanish tamoyillari, xususiyatlari ko'p jihatdan Sharq va G'arb olamining o'zaro ta'sirlashuvi zahirida shakllanar ekan.

Foydaniilgan adabiyotlar:

- 1 Jo'rayev N. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015,.
- 2 Konfutsiy. Hikmatlar. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010,
- 3 Nazarov Q. Falsafa. T., "DITAF", 2000,
- 4 Aflotun. Qonunlar. T., "Yangi asr avlodi", 2002, 197-bet. 5 Nazarov Q. G'arb falsafasi. T., "Sharq", 2004,

GEODEZIYA ISHLARI

D.A.Gulamova

TTYT Maxsus fan o'qituvchisi

A.Sh.Tadjixodjayeva

TTYT Maxsus fan o'qituvchisi

D.M.Kadirova

TTYT Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Geodeziya – har qanday qurilish ob'yektlarini to'g'ri loyihalash, koordinatalarni aniqlash, , topografik sur'atlarni o'z vaqtida yangilash uchun muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Geodeziya, koordinatalar, syomka, topografik syomka, ob'jekt, cho'kish, deformatsiya, 3D model, masshtab, kameral ishlar.

Geodeziya tadqiqotlari bugungi kunda turli-tuman sohalarda keng qo'llaniladi. Bu sohalardan biri yer-kadastr munosabatlaridir. Temir yo'l izini qurishda geodeziyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xar qanday qurilishda ham geodeziya ishlari ayniqsa muhimdir. Bu sanoat ob'yektlarini va fuqarolik binolarini loyihalash va qurishda yuqori o'lchov aniqligiga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Shuning uchun qurilishda geodezik ishlarning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin.

Muhandislik-geodeziya tadqiqotlari natijasi qurilish ishlari olib boriladigan hudud relyefining tabiati haqidagi ma'lumotdir. Ular bilan ixtisoslashgan kompaniyalar shug'ullanadi, ularning vazifasi tadqiqot tarmoqlarini qurish va rivojlantirish (rejalashtirilgan va baland balandliklar), yer chegaralarining asosiy nuqtalarining koordinatalarini aniqlash, o'tkazish, topografik sur'atlarni o'z vaqtida yangilash, mavjud muhandislik kommunikatsiyalar (yer osti va yer usti)ni aniqlash va xaritalarda belgilash.

O'z faoliyatida tadqiqotchilar hududning topografik xaritalarini o'z ichiga olgan manba ma'lumotlariga tayanadilar. Ob'yektni ishlatish jarayoni bir qator aniq muhandislik-geodeziya vazifalarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Deyarli

hamma joyda loyiha va ishchi hujjatlarni qayta ishlash va takomillashtirish, bog'lash va joylashtirish ishlarini bajarish, binolarning geometrik parametrlarini nazorat qilish va qurilish tadqiqotlarini o'tkazish talab etiladi.

Bundan tashqari, qurilishdagi geodeziya ishlari yer yuzasi va qurilish ob'yektlarining cho'kishi va deformatsiyasini kuzatish, shu jumladan xavfli tabiiy jarayonlarni kuzatishni o'z ichiga oladi. Ular, shuningdek, o'lchov ishlariga mas'uldirlar, ya'ni binolarning parametrlarini va turli me'moriy shakllarni aniqlaydilar. Bundan tashqari, ular konstruksiyalar va ustunlarning vertikaligini nazorat qiladi, kranning uchish-qo'nish yo'laklarini tekislaydi. Har qanday murakkab turdagi uskunani o'rnatish bunday ishlarsiz tugallanmaydi.

Qurilishdagi geodeziya ishlarining turlari

Zamonaviy geodeziyaning qo'llaniladigan yo'nalishlari qanday? Ularning sezilarli soni bor. Ob'yektda mutaxassislar mutlaq balandliklarga va ma'lum bir joyda mavjud bo'lgan koordinatalar tizimiga bog'langan etalon geodeziya tarmog'ini yaratadilar. Qurilish maydonchasi vertikal va gorizontal yo'nalishlarda rejalashtirilgan, tuproq ishlarining zarur hajmlari naturada hisoblanadi. Dizayn oqlari binoning tashqarisida va ichida chiqariladi. Qurilish ob'yektlari vertikal ravishda rejalashtirilgan, ularning maydoni, hajmi va perimetri aniqlanadi.

Qurilishdagi geodeziya ishlari zavod jihozlarini o'rnatish va murakkab asboblarni o'rnatishda qo'llaniladi. Ularga temir yo'l va kran relslarini qurishda muhim o'rin beriladi. Ular, shuningdek, chiziqli tuzilmalar, ustunlar, minoralar, turli antennalar, ofis va dala izlarini qurishda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi ishlar yer osti kommunal xizmatlari sohasida ham talabga ega.

Qurilish tugagandan so'ng, loyihada ko'rsatilgan qarorlardan barcha og'ishlarni aniqlaydigan ijro etuvchi so'rov o'tkaziladi. Ob'ektning geometrik parametrlarini nazorat qilish qurilish jarayonining o'zida ham amalga oshiriladi. Geodeziya ishlarini ishlab chiqarishning zamonaviy usullari sizga elektron shaklda yoki 3D modellar ko'rinishida ijro rejalari va diagrammalarini yaratish imkonini beradi.

Qurilishdagi har qanday geodeziya ishlarini uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi (tayyorgarlik) eng muhim fikrlar ro'yxatini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan texnik shartlarni shakllantirishdir. Biz kelajakdagi ob'yektning hududda va kosmosda joylashishi, uning hajmi va hajmi haqida gapiramiz. Quyida bajarilishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxati keltirilgan. U topografik suratga olish, hududni taqsimlash, ijro etuvchi tadqiqot, o'lchash ishlari yoki nazoratdan iborat bo'lishi mumkin.

Tayyorgarlik bosqichida zarur texnik hujjatlar yig'iladi va tayyorlanadi. Ularga mavjud topografik xaritalarning nusxalari, uchastkalar va qurilish

maydonchalarining chegaralari belgilangan uchastka rejalar, kelajakdagi ob'ektlarning konturlari ko'rsatilgan bosh rejalar kiradi.

Tekshirish uchun tuzilgan shartnoma geodeziya ishlarining tayyorgarlik bosqichini yakunlaydi. Keyinchalik, qurilish maydonchasida ilgari olib borilgan muhandislik ishlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashingiz kerak. Ularsiz vazifa ancha qiyinlashadi. Texnik topshiriq asosida ish tashkilotchisi barcha mavjud shart va cheklolarni hisobga olgan holda kelgusi tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Ishning amaliy tomoni

Ishning ikkinchi bosqichida - dala - geodeziyachilar hududda razvedka ishlarini olib boradilar. Bu juda murakkab jarayon, chunki ko'pincha haqiqiy sharoitlar hujjatlarda ko'rsatilganidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ushbu bosqichning eng mas'uliyatli jarayoni topografik suratga olish deb ataladi. U muhandislik tadqiqotlarining eng mashhur va ommabop turlariga kiradi va turli miqyoslarda - 1:500 dan 1:5000 gacha o'tkaziladi.

Uning natijalariga asoslanib, tadqiqotchilar topografik rejani tuzish imkoniyatiga ega. Zamonaviysohadagi faoliyat elektron va optik teodolitlar, lazer sathlari va boshqalar ko'rinishidagi eng yangi texnik vositalardan foydalanish bilan birga olib boriladi. Ulardan foydalanish nafaqat geodeziyachilarning mashaqqatli mehnatini osonlashtiradi, balki buyurtma bo'yicha o'lchovlarning aniqligini oshiradi. kattalik. Tuzilgan topografik rejada erning har qanday elementlari ko'rsatilishi kerak, ular orasida binolar, rel'ef o'zgarishlari va katta o'simlik ob'ektlari mavjud. Mavjud bo'lgan barcha er osti kommunikatsiyalari, masalan, quvurlar yoki elektr kabellari, albatta, o'rnatilishi kerak. Agar bu nuqtaga etarlicha e'tibor berilmasa, oqibatlar juda jiddiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun topografik rejani tayyorlash yuqori malakali mutaxassisning vazifasidir.

Geodezik ishlarning turlari. Topografik tadqiqot nafaqat quruvchilar uchun foydali. Landshaft dizayni bo'yicha mutaxassislar va er uchastkasini qurish uchun ruxsat olish uchun ariza berganlar bu holda qila olmaydi. Shunday qilib, erni boshqarish tartib-qoidalari haqida gap ketganda, tadqiqot ma'lumotlari deyarli hamma joyda talab qilinadi.

Oxirgi qadam

Geodeziya ishining yakuniy bosqichi kameral yoki ofis deb ataladi. Unda mutaxassislar dala ishlari davomida olingan ma'lumotlarni va barcha hisoblangan parametrlarni aniqlaydilar. Qayta ishlash muhim ma'lumotlar oqimini talab qiladi, bu esa ijrochilarning diqqatini va yuqori malakasini bildiradi.

Geodeziya sohasida bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hisobot tushuntirish deyiladieslatma va bajarilgan ish natijalari bilan ko'plab raqamlar, chizmalar,

diagrammalar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. To'g'ri rasmiylashtirilgan barcha hujjatlar mijozga o'tkaziladi.

Jarayonni kim boshqaradi

Qurilish maydonchasidagi ishlarning tayyorgarlik bosqichi odatda buyurtmachi-quruvchi tomonidan amalga oshiriladi, qurilish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifalar ko'pincha pudratchi yoki bosh pudratchi tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtmachi va bosh pudratchi turli tashkilotlar vakillari bo'lishi mumkin, lekin ba'zida ular bir investitsiya va qurilish kompaniyasi doirasida hamkorlik qiladilar.

Qurilishda geodeziya ishlarini tashkil etish ularning murakkabligi va hajmiga bog'liq. Agar geodeziya mutaxassislarini o'z ichiga olgan ob'ektni qurishda subpudratchi ishtirok etsa, bu ishlarning barchasi ular tomonidan amalga oshiriladi. Agar murakkab tadqiqotlarni o'z ichiga olmaydigan kichik ob'ekt haqida gapiradigan bo'lsak, geodezik vazifalar to'g'ridan-to'g'ri quruvchilar tomonidan hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ch.Muborakov, S.Axmedov Geodeziya va kortagrafiya Toshkent 2018
2. E.Safarov, Sh.Prenov, A.Mo'minov Topografiya va kortagrafiya, gat texnologiyalari. Toshkent 2018
3. Г.Г.Покдад, С.П.Гриднов Геодезия.Учебное пособия для вузов ВГАУ

**PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPMENT OF
ENLIGHTENMENT CHARACTERS IN STUDENTS ON THE BASIS OF
THE TEACHING OF AL-HAKIM AT-TERMIZI**

Nusratov Anvar Nematjonovich

Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Xusanova Adolat Karimjonovna

*Master's student of the 1st stage of pedagogy and psychology at the International
University of Asia*

Annotation: In this article, in order to develop the enlightened qualities of the students, we will use the teachings of Al-Hakim al-Tirmizi and the past scholars-scholars who were honored by the people, while the teacher pedagogue relies on his own knowledge and skills. It is shown to explain the information in an interesting way.

Key words: Al-Hakim al-Tirmizi, Enlightenment, Development of Enlightenment, technology of providing information in an interesting way to students.

Main part: Al-Hakim al-Tirmizi his full name is Abu Abdullah Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bashir al-Hakim al-Tirmizi, biographical information from the medieval Arab authors Tajuddin as- In the works of Subki, al-Khatib al-Baghdadi, Ibn Hajar al-Asqalani, al-Sullami and others, as well as his own "Bad'u sha'ni Abu Abdullah" ("The beginning of the work of Abu Abdullah") given in his autobiographical pamphlet.

Its full name in this form is "Nawadir ul-usul fi marifat akhbar ar-rasul" ("Rare ways about the messages of the Messenger of God"), "Ilm ul-Awliya" ("The knowledge of the saints (or saints)") written by the scholar. , "Khatm ul-Avliya" ("The Last of the Saints") and "Nazair ul-Qur'an" ("Lessons of the Qur'an") are named in the same way in the introductory parts. Regarding the date of birth of Al-Hakim at-Tirmizi, different years are given in written sources and literature. Usually, in the written sources of the Middle Ages, in most cases, only the year of the author's death is indicated, and the date of birth is not given. For example, the famous scientist Haji Khalifa in several places of his famous work "Kashf uz-Zunun" indicated the death of al-Hakim al-Tirmizi as the year 255 AH (melodic 869). In addition, some information about his life is given in the inscriptions on the tombstone of Alloma

located near the city of Termiz, and the date of his death is written as 255 Hijri (melody 869). Some other sources also mention that he died on this date. If we take into account that Al-Hakim al-Tirmizi lived for a long time - 116 or 120 years, it becomes clear that the scholar was born in the middle of the eighth century (approximately between 750-760). At the same time, some modern researchers indicated completely different dates of his birth and death. For example, the famous Egyptian scientist Abdulfattah Abdullah Baraka al-Hakim al-Tirmizi, who deeply studied the life and teachings of al-Hakim al-Tirmizi, was born in the city of Termiz in 205 AH (melody 820), lived a long life, and died in 320 AH. (melody 932) writes that he died at the age of 112[3]. In conclusion, we can say that in-depth scientific research in this direction will allow us to determine the dates of birth and death of Allama al-Hakim al-Tirmizi. His mausoleum is located near the city of Termiz on the banks of Amudarya.

Valuable information about the city of Termiz is provided by Arab geographers al-Muqaddasi (Ahsan ut-taqasim fi marifat al-aqoliym), al-Istakhri (al-Masolik wal-mamolik), al-Balazuri-Futuh ul-buldan and a number of other authors. we meet in his works. According to these sources, the city of Termiz, where al-Hakim at-Tirmizi was born, was also famous as one of the largest and most prosperous cities of Movarounnahr in the 9th century. Islamic science and culture are highly developed in the city. Many scholars in various fields of science, including Islamic sciences, who grew up in the city of Termiz, are famous all over the world with the at-Tirmizi nisab. Al-Hakim al-Tirmizi is one of the great figures of Termizism who has received worldwide respect. Unfortunately, we did not find any specific information about al-Hakim at-Tirmidhi's childhood and youth in the sources. According to some reports about his parents, his father Ali ibn al-Hasan was famous in his time as one of the prominent scholars of hadith science. According to the Arab historian al-Khatib al-Baghdadi in his famous work "Tarihi Baghdad" ("History of Baghdad"), he was in the city of Baghdad, which is one of the largest centers of the Muslim world. participated in heated debates and discussions with the famous scientists and scholars of the time on various issues of hadith science. Al-Hakim al-Tirmizi wrote in his autobiographical treatise "Bad'u sha'ni Abu Abdullah" and "Ar-Radd al'al-muattila" that his mother and grandfather were among the most advanced scholars of hadith in their time. was. From this information, it can be concluded that Al-Hakim at-Tirmizi was born in an intellectual family, where knowledge was highly valued, and he grew up in this scientific and spiritual environment. Ultimately, under the influence of these factors, his spiritual world and scientific thinking were formed and matured. At the same time, it should be emphasized that the services of his father Ali ibn al-Hasan in al-Hakim al-Tirmidhi's scientific development are extremely

important. For example, he was not only a loving and caring father for his child, but also a demanding coach and an enlightened teacher.

The word "enlightenment" is translated as "knowledge" or "enlightenment". This word expresses an appreciation of enlightenment, support for its transformation, and an interest in learning about it. Enlightenment refers to people's interest in learning about themselves and others, developing knowledge and enlightenment.

There are several ways to develop enlightenment.

✚ First, you need to constantly update and develop your thoughts and skills to increase your knowledge and enlightenment. This requires you to expand your knowledge by learning new information, asking new questions, and seeking answers to those questions.

✚ Second, enlightenment can be developed by sharing information and learning with others. Communicating with others and using their ideas allows you to gain new information, acquire new skills, and expand your reputation.

✚ The third way is to increase your knowledge and skills by sharing and teaching others to develop enlightenment. It helps you develop your own enlightenment by sharing your enlightenment with others, hearing their thoughts and being introduced to their thoughts.

Students can use the following technologies to learn in an interesting way:

❖ **Interactive textbooks:** Interactive textbooks allow students to access information according to their own learning style. These textbooks interact with the student interactively and make learning more interesting through animations, audio and video materials, tests and practical exercises.

❖ **Multimedia textbooks:** Multimedia textbooks combine text, images, audio and video materials, animations and other multimedia elements to provide more information to students. Through this method, students can improve their skills and learn information.

❖ **Online Learning Platforms:** Online learning platforms allow students to learn by taking new information, taking tests and doing hands-on activities. Through these platforms, students can access information at their own time and place.

❖ **Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR):** VR and AR technologies allow students to acquire information in an interactive and engaging way. Through these technologies, students can learn in virtual worlds or in the real world.

Conclusion: Hakim Termizi's views on guardianship and guardianship served as a basis for later thinkers, sheikhs and scholars. As a result, various opinions, narratives and stories appeared in various works about the concept of guardianship and its moral and social impact, the relationship between Islamic beliefs and the activities of guardians, and the merit of guardianship. Hakim Termizi's doctrine of "Khatm ul-Awliya" (Seal of the Guardians) about guardianship (guardianship) became one of the hot topics of his time and was widely spread throughout Khurasan, especially in Termiz and Balkh. Most of the medieval Sufi scholars also supported this doctrine. In particular, Sufism and Tariqat people such as Imam Ghazali, Shihabuddin Suhrawardi, Suyuti, Bidlisi and Bahauddin Naqshband were influenced by the teachings of Allama. Hakim Termizi's thoughts and ideas regarding the degrees of guardianship, sainthood, their inner and outer purification, spiritual and moral perfection are today used in building New Uzbekistan, raising the spiritual potential of society, and on this basis, making the young generation an active person, a perfect human being. It serves as a program in education. The rich scientific and spiritual legacy left by Al-Hakim At-Tirmizi will serve the interests of man and society for centuries.

References:

1. Abduraimovna, D. S. The Culture of Environmental Safety and the State of Its Formation. International Journal on Orange Technologies, 2(10), 95-98. 5. Jumaeva, H. (2020). Some Shapes of Spiritual Attack, Its Influences and Outcomes for Educating the Youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
2. Djumayeva, H. M. (2021). DEVELOPING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF PREVENTING STUDENTS FROM INTERNAL THREATS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 331-338.
3. Джумаева, Х. М. (2018). ГЛОБОЛЛАШУВ ДАВРИДА, ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ. Интернаука, (46-2), 70-71.
4. Djumayeva, H., & Turayev, A. (2022). METHODOLOGY OF COMBINATORY PROBLEMS SOLVING IN THE TIMSS INTERNATIONAL

ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS.

Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 1224-1228.

5. Донаява, Ш. (2022). Refleksion o 'qitishga innovatsion yondashish va refleksiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlari.

Общество и инновации, 3(2/S), 367-372.

6. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey <https://econferencezone.org> May 20th 2023 52

AL-HAKIM AT-TERMIZIY
PEDAGOGIK QARASHLARIDAN OLIY TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISH
MUAMMOSINING YORITILISHI Skorlupkina Aleksandra Aleksandrovna

THE SYSTEM OF HUMANIZATION OF TEACHER AND STUDENT RELATIONS IN THE CONTENT OF THE DIDACTIC SYSTEM

Nusratov Anvar Nematjonovich

Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Qalandarova Gulyor Baxriddinovna

*Master's student of the 1st stage of pedagogy and psychology at the International
University of Asia*

Abstract: This article focuses on the theoretical and practical issues of directing didactic relations to activities based on humanization of future teachers and students. In particular, opinions on the need to understand didactic relations as a pedagogy of humanization of education are also emphasized.

Key words: Didactic system, Relationship between teacher and student, Humaneness, Development of humaneness among students.

Main part: A didactic system is a system organized for students to receive information, understand it and implement it. This system includes all the tools, methods, and technologies that students need to learn and develop information. **The didactic system will have the following main elements:**

- ❖ **Learners:** Learners are at the core of the learning process. They use methods and tools that suit them to obtain information, understand it and implement it.
- ❖ **Teachers:** Teachers are the persons who provide important services for imparting information to students, engaging them and developing them. It is important that they use pedagogical technologies and organize the learning process.
- ❖ **Curriculum:** Curriculum defines how to provide information in an appropriate way to students as they acquire, understand, and apply information.
- ❖ **Technologies:** In the didactic system, technologies play an important role in creating facilities for students to acquire information and develop them. These technologies can be computer programs, interactive textbooks, online platforms and other information and communication technologies.
- ❖ **Learning aids:** These are the devices, materials and equipment that students need to acquire and develop information.

The relationship between the teacher and the student is very important for the learning process to be effective and efficient. This relationship is important in the communication between the teacher and the student, in the process of students' acquisition of information, their understanding and their development. The relationship between the teacher and the student is important for the understanding, support and interest of the teacher and the student. The teacher will have to help students learn and develop information, interest them and organize work with them. Students should approach the teacher with curiosity, ask questions, and ask for help in understanding the information. The relationship between teacher and student is important in that teacher and student show respect and fairness to each other, share information, share ideas and show comfort to each other. A meaningful relationship between a teacher and a student is of great importance in making the educational process effective and efficient. In addition, the relationship between the teacher and the student is important in the process of students' acquisition of information and their development, and is an important part of effective education.

The didactic system plays an important role in the acquisition and development of students' information. The good organization of this system is of great importance in making the educational process effective and efficient.

Humanity consists of human behavior and habits based on respect for other people, attention to their rights and respect for their goals. Humanity is a changing value based on the principles of respect for humanity, justice, stability, freedom and equality.

Humanism aims to ensure respect for all human beings, attention to their rights and respect for their goals. This is essential for the protection of the rights of all people, for them to have justice and stability, to have freedom and stability. Humanity requires action to ensure respect for humanity, to protect human rights, to ensure their rights and to create opportunities for their comprehensive development. Humanism requires equal rights and opportunities for all people, regardless of gender, national, ethnic, religious or social lifestyle. Humanity is important for human beings to learn, develop and learn to treat each other with justice, respect and love. This is of great importance in strengthening interpersonal relations, creating an atmosphere of peace and stability.

Conclusion: To develop humanity among students, you can use the following methods:

- ❖ Learning about justice and respect: Organizing lessons, dialogues and active participation in the community for students to learn and develop relationships of justice, respect and love with each other.
- ❖ Multicultural Education: To provide opportunities for students to respect and develop relationships with different genders, nationalities, ethnicities, and religious groups through multicultural education.
- ❖ Mastering Humanity: Organizing practical activities, teaching articles and dialogues about how to show humanitarianism to students to master the principles of humanitarianism.
- ❖ Active participation in the community: Encourage students to actively participate in the community, discuss humanitarian issues with friends, encourage community participation for future performance.
- ❖ Multi-viewer programs: Expand students' understanding of humanities through multi-viewer programs, videos and books.
- ❖ The issue of developing humanitarianism among students is very important, because it is important for the future society that they learn the principles of humanitarianism and develop their respect for other people and fair relations.

References:

1. Dilshoda Jalilova. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibidagi qizmlarining mazmun-mohiyati.«O'ZBEKISTON DAILY MFANNING RIVOJLANISHI TIOBOLLARI» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 30- noyabr. 839-842-betlar. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842>)
2. Dilshoda Jalilova Ural qizi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyati. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 2023-yil 2-iyun (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607>) .
3. Hojjeva, Z. U. (2014). The Role of "Mark" in Humanization of Didactic Relationships. In *Young Scientist USA* (pp. 33-36).
4. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim - tarag'givot povdevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami / / Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.

5. Zulfiya Khojievva. THE ROLE OF CO-CREATION IN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR EFFECTIVE COLLABORATIVE WORK. International Journal of Pedagogics. 2022.
6. Zulfiya Khojievva. THE HUMANIZATION OF DIDACTIC RELATIONS BETWEEN TEACHER AND STUDENT IN MODERN EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 124-127pages. 2020.
7. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
8. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
9. <https://cyberleninka.ru>
10. <http://scientists.uz>

BOSHQARUV NAZARIYASINING IJTIMOIIY NAZARIYA ASOSLARI

Qurbonova Quzratoy

*Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlari bo'yicha
2-kurs talabasi*

Annatsiya: Hozirgi kunda boshqaruvning umumiy nazariyasi amaliyotga joriy etilayotgan menejment nuqtai nazaridan, boshqaruv - tashkilot faoliyatini ta'minlash, xodimlarni motivlashtirish, uning tarkibiy bo'g'inlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayoni. O'z-o'zidan ravshanki, menejmentning predmet sohasi, birinchidan, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan tizimlar, ya'ni muhim bo'g'ini odamlar sanalgan tuzilmalar bilan; ikkinchidan, 'gashkilotlar, ya'ni odamlar uyushgan birlashmalarning barcha shakllarini ham qamrab olmaydigan ixcham tuzilmalar bilan sezilarli darajada cheklanadi. Uchinchi cheklash ham mavjud bulib, u menejmentning haqiqiy mazmunidan kelib chiqadi menejment asosan iqtisodiy soha tashkilotlarini o'rganadi Shunday qilib, menejmentning universallikka bo'lgan davolarini asosli deb hisoblash mumkin emas.⁶⁰

Kalit so'zi: boshqaruv nazariyasi, menejment, tizim tushunchasi, rahbar.

Kirish: Boshqaruv - qarorlar qabul qilish haqidagi fan va qarorlar qabul qilish san'ati hisoblanadi. Unga mazkur metod doirasida boshqaruv qarorlari (maqsadlar)ni asoslash va qabul qilish ularning bajarilishini ta'minlash, shu bilan bog'liq barcha ishlarni muvofiqlashtirish, olinayotgan natijalarning qo'yilgan maqsadlarga muvofiqligini nazorat qilish uzluksiz jarayoni sifatida qaraladi. Xuquqshunoslik nuqtai nazaridan, boshqaruv sotsium faoliyatini davlat tomonidan qonunlar yordamida huquqiy tartibga solishdir. "Boshqaruv" tushunchasi mazmuniga berilgan ta'riflarni yana keltirish mumkin. Ularning aksariyatida boshqaruv, yuqoridagi ta'riflar kabi, ijtimoiy boshqaruv sifatida qaraladi, ya'ni ijtimoiy tuzilma bilan chegaralanadi.

Umuman olganda, "boshqaruv" terminining o'zbekcha mazmuni etimologiyasi uni "izchil faoliyat" sifatida talqin qilish imkonini beradi. "Boshqaruv" tushunchasining mazkur talqini keng, shu bilan birga, mavhum: u boshqaruvning boshqaruv faoliyati mazmunini faoliyatning boshqa turlari orasidan ajratish imkonini beruvchi xususiyatini yoritmaydi.

Oddiy ong darajasida boshqaruv deganda, odatda, bir element (qurilma, individ, ijtimoiy institut va sh.k. - boshqaruv sub'ekti)ning o'zi bilan bog'langan boshka

⁶⁰ Bogdanov A.A. Tektologiya vseobodaya organizatsionnaya nauka.T. 1. - M.: [Ekonomika](#), 1989. - 213-215-6.

tarkibiy tuzilma (boshqaruv ob'ekti)ga qaratilgan, berilgan yoki mustaqil ta'riflangan maqsadlarga erishish bilan belgilangan faoliyat yoki jarayon tushuniladi. Bu ta'rif "boshqaruv" tushunchasi mohiyatini to'g'ri aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda boshqaruv har xil tabiatli (tabiiy, biologik, ijtimoiy, texnik, uyushgan tizimlarning ular faoliyatining zaruriy rejimini quvvatlashni yoki mazkur tizim mavjudligining ob'ektiv qonuniyatlariga, amalga oshirilayotgan dasturga yoki ongli ravishda qo'yilgan maqsadga muvofiq, boshqa holatlarga o'tkazishni ta'minlovchi vazifa, degan ta'rif mavjud. Ammo bu mavjud noaniqliklarni bartaraf etmaydi.⁶¹

Birinchiidan, mazkur vazifa nimaning hisobiga va qay tarzda amalga oshirilishi noaniq. Bundan tashqari, unda ham umume'tirof etilgan mazmunga ega bo'lmagan tushuncha ishlatilgan. Bu o'rinda gap "tizim" kategoriyasi haqida bormoqda (uning o'nlab ta'rifi mavjud). Biz masalaga aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

"Tizim" tushunchasi talqinlarida o'zaro tafovut mavjud. Ushbu tushuncha doimo o'z o'rnida ishlatilavermaydi. Odatda "tizim" tushunchasiga berilgan ta'riflarda zarur ikki belgisi - bittadan ortiq tarkibiy qismlari mavjudligi va o'zaro aloqalari; ular o'rtasidagi munosabatlar hisobga olinadi. Mazkur yondashuv tizimlar umumiy nazariyasining dastlabki mualliflari (R.Akoff, A.Berg, P.Draker, G.Saymon va b.) tomonidan ilgari surilgan va hanuzgacha yetakchilik qilib kelayotir.

Boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari.

Mehnat qiluvchi insonni ongli ravishda ilmiy o'rganish o'tgan asrdan boshlandi. Tashkilot menejmentini o'rganuvchi olim V.A.Spivak boshqaruv nazariyalarining rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga ajratgan holda tadqiq etadi: Ilmiy boshqaruv maktabi yoki mehnati ilmiy tashkil etish maktabi. Ushbu yo'nalish asosida Amerikalik olim F.U.Taylor nomiga qo'yilgan «teylorizm» ta'limoti yotadi va bu sohada olib borilgan AQSHdagi izlanishlar 1885-1920 yillarni o'z ichiga oladi. F.U Teylor o'sha davrdagi malakasiz ishchilardan samarali foydalanish maqsadida, murakkab va malaka talab etuvchi mehnat turini mayda operatsiyalarga ajratdi.

Mehnat jarayonini maxsus operatsiyalarga ajratish natijasida, Reysom Olds 1902-yilda konveyer usulini yaratdi va avtomobil yig'ish zavodiga tatbiq etdi. Yangi uslub bo'yicha ishlab chiqarish natijasida yillik mahsulot 425 donadan 2500 taga ko'paydi. Genri Ford esa bu uslubni yanada takomillashtirish orqali, avtomobil ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni 20 martaga kamaytirdi va nafaqat Amerika, balki keyinchalik butun jahon avtomobil bozorini ishg'ol qildi. Ma'muriy boshqaruv maktabi. Ushbu yondoshuv A. Fayol nomi bilan bog'liq bo'lib,

